



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VAO‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX VA MADANANIY MEROS FAKULTETI**

“Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi” kafedrası

IV kurs bitiruvchisi Haydarov Muhridinning

“ALISHER NAVOIY IJODI BARKAMOL AVLOD QALBIGA

MILLIY ISTIQLOL G‘OYASINI SINGDIRISHDA BEBAHO TARIXIY

MANBA” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Inoyatov. S.I

Taqrizchi:

Qodirov.D.H

BUXORO-2019

MAVZU: ALISHER NAVOIY IJODI BARKAMOL AVLOD
QALBIGA MILLIY ISTIQLOL G'OYASINI SINGDIRISHDA BEBAHO
TARIXIY MANBA

KIRISH

I BOB. ALISHER NAVOIYNING HAYOTI VA IJODI

- 1.1. Mustaqillik yillarida Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi.
- 1.2. Alisher Navoiy ijodida barkamol avlodni tarbiyalash g'oyalari.

II BOB. ALISHER NAVOIY ASARLARIDA INSON MASALASI

- 2.1. Alisher Navoiy insonparvarlik g'oyalarining tarbiyaviy ahamiyati.
- 2.2. Alisher Navoiy adabiy merosining yosh avlod tarbiyasiga tutgan o'rni.

XULOSA

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

ILOVALAR

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Qomusiy bilimlar sohibi, buyuk mutafakkir va ma'rifatparvar Alisher Navoiy XV asrda - temuriylar davrida yashab ijod etgan allomadir. Uning nomi va ijodi Gomer va Dante, Rudakiy va Firdavsiy, Nizomiy va Shota Rustaveli, Sa'diy va Jomiy, Shekspir va Balzak, Pushkin va Tolstoy kabi ulkan so'z darg'alarining nomi va merosidek o'lmasdir.

Mamlakatimizda Alisher Navoiy merosini keng va atroflicha, to'laqonli o'rganish, uning asarlarida ulug'langan g'oyalar mazmunini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar ongiga yetkazish yuzasidan katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Alisher Navoiyning ijodiy faoliyati serqirraligi bilan nafaqat o'zbek mumtoz adabiyoti, balki Sharq va butun dunyo adabiyoti tarixida ham alohida o'rin tutadi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglashda Navoiy asarlarining o'rni katta. Zero, Navoiyni anglash, uning falsafiy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy mushohadalarga boy asarlarini o'qish va tushunish har bir inson uchun ulkan saodatdir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Alisher Navoiy bobomizning **"Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami"** degan satrlarida qanchalik chuqur hayotiy hikmat, falsafa bor. Ya'ni, bu dunyoda insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir, xalqning g'amidan uzoq bo'lgan insonni odam qatoriga qo'shib bo'lmaydi, deb ta'kidlamoqda ulug' bobomiz.

Bu o'lmas satrlar bizning bugungi hayotimiz bilan, bizning orzu-intilish va amaliy harakatlarimiz bilan naqadar hamohang ekani odamni hayratga soladi"¹.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy asarlari jamiki odamzodga mehnat va halollikdan, do'stlik va hamkorlikdan, rostgo'ylik, sofdillik va samimiylilikdan muhim hayotiy saboq bermoqda, haromxo'rlik va adolatsizliklarni, o'zaro nizo va qonli to'qnashuvlarni, vayronagarchilikka sabab boladigan urushlarni esa keskin

¹Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: "O'zbekiston", 2016. –B.18.

qoralamoqda. Ana shu ma'noda olganda, Alisher Navoiy ta'limoti faqat milliy ahamiyatga ega bogibgina qolmasdan, umumbashariy qimmatga ham ega.

Shuning uchun ham juda kuchli g'oyaviy ta'sir kuchiga va so'zning quvvatiga, ya'ni sehriga ega bo'lgan mutafakkir hazrat Navoiy merosidan biz yosh avlodni barkamol, ya'ni komil inson qilib tarbiyalashda, bugungi kunning o'tkir qurollari bo'lgan ma'naviy tahdidlardan himoya qilishda, ularga qarshi kurash usuli bo'lgan g'oyaviy tarbiyada keng ko'lamda foydalanamiz va bu o'zining amaliy ahamiyatiga egadir.

Olimlarimiz shoir adabiy merosining o'rganilmagan qirralarini kashf etish, asarlarini asl holicha tadqiq etish va xalqimizga yetkazish maqsadida keng ko'lamli ilmiy izlanishlarni amalga oshirayotir. Bunday tadqiqotlar natijasida navoiyshunoslikka oid ko'plab monografiya, risola, maqola va ilmiy-ommabop materiallar chop etilmoqda. Biz ushbu mavzuning dolzarbligini quyidagilar asosida ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

Birinchidan, Navoiyning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari kishilarda vatanparvarlik, o'zlikni anglash, odamiylik, halol va pok bo'lish, nafsni tiyish, sabr-bardoshli va yetuk inson bo'lib yetishish, barkamol avlod ma'naviyatining mustahkamligi kabi umumbashariy fazilatlarni kasb etishda muhim ahamiyatga ega ekanligi;

Ikkinchidan, Navoiyning qoldirgan bebaho ma'naviy meros asosida insonni ilm-ma'rifatli bo'lishga undash, uning asarlari orqali barkamol avlod qalbi va ongida ilm inson kamoloti uchun eng zarur fazilat ekanligini singdirish, ilm insonni, xalqni nodonlik va jaholatdan qutqaruvchi omil ekanligini asoslash;

Uchinchidan, Navoiy asarlari orqali sadoqat, qanoat, muruvvat, hilm, karam, sabr, himmat, saxovat va ishq tavozeni haqiqiy insonga xos xislatlar deb bilib, yosh avlodni tarbiyalashda bundan keng foydalanish;

To'rtinchidan, Navoiy ijodi orqali xalqqa ish bilan ham, so'z bilan ham, ko'ngil bilan ham foyda keltiradigan, xalq manfaati uchun ishlaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy odam deb bilish g'oyasi ruhida tarbiyalash.

Beshinchidan, mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor vazifasi qilib qo'yilganligi bilan ham belgilanadi. Yosh avlodni ma'naviy jihatdan tarbiyalamasdan jamiyatimizning olg'a qarab taraqqiy etishi, yutuqlarga erishishi qiyin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning fikrlaricha: "Yurtimiz yoshlari o'rtasida ilm-fan, ta'lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat, adabiyot va san'at, sport, ishlab chiqarish, harbiy xizmat sohalarida, umuman, barcha jabhalarda jonbozlik ko'rsatib kelayotgan azamat yigitlarimiz juda ko'p. Ular o'zining jismoniy va ma'naviy salohiyati, iste'dod va mahoratini namoyon etishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish borasida mamlakatimizda ko'p ishlar qilinyapti va kelgusida ham ularni albatta davom ettiramiz"¹.

Navoiy o'z ijodi bilan o'zbek adabiyotining so'nggi rivojini belgilabgina qolmay, Movarounnahr va Xurosonning butun ma'naviy madaniyati taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Uning asarlari, she'riyati qayta-qayta ko'chirilib, xalq orasida keng tarqalib, shoirlar uchun maktab vazifasini o'tadi.

Oltinchidan, Alisher Navoiy o'zbek xalqini dunyoga tanitgan milliyligimizni anglatgan allomadir. Uning tarixiy xizmati o'zbek adabiy tili imkoniyatlarini asoslab berish bilan birga, asarlarida ilg'or g'oyalar, islom va tasavvuf ta'limoti maslagini birlashtirganligidir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning serqirra hayoti va siyosiy-ijtimoiy faoliyati ko'plab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ayniqsa, O'zbekistonlik tadqiqotchilar mutafakkirning hayoti va keng qamrovchi ijodini o'rganish tartib va tashviq etishda muhim ishlarni amalga oshirdilar. Bevestia Alisher Navoiy va uning ijodiga tarixchilar va boshqa ilm-fan namoyondalari ahamiyat berib kelmoqdalar. Bizning mazkur ilmiy ishimizda Navoiyning ma'naviy-ma'rifiy qarashlarini o'rganish muammolari ilmiy-nazariy umumlashtirishga harakat qilingan bo'lsa-da, muammoning ba'zi ilmiy-nazariy jihatlarini ko'plab adabiyotshunos va boshqa olimlar tadqiqotchilar faoliyatida o'z aksini topgan. Alisher Navoiyning hayoti,

¹Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. //Xalq so'zi, 1 iyul, 2017 yil.

ijodiy merosi, dunyoqarashi haqida olimlardan E. Ochilov, Mahmud As'ad Jo'shon, Ibrohim Haqqul, Hayitmetov A, Mallayev N, Zoxidov V, Sultonmurod Olim va boshqalar mavzuni har tomonlama tadqiq etganlar.¹

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Ishning maqsadini Alisher Navoiyning o'zbek milliy ma'naviyati va ma'rifati rivojiga qo'shgan hissasini tadqiq etish, uning boy ma'naviy-ma'rifiy qarashlarini bugungi kun talablari, shartlari nuqtai nazaridan tahlil qilish tashkil etadi.

Tadqiqot mohiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi **vazifalar belgilandi:**

Birinchidan, Alisher Navoiyning hayot va ijod yo'lini tadqiq etish;

Ikkinchidan, mustaqillik va Alisher Navoiyga bo'lgan munosabatni tahlil etish;

Uchinchidan, Alisher Navoiy ijodiy merosida umuminsoniy qarashlarni ochib berish;

To'rtinchidan, Alisher Navoiy ma'naviy merosida insonparvarlik g'oyasini yoritib berish;

Beshinchidan, Alisher Navoiy ijodida komil inson to'g'risidagi qarashlarini manbalar asosida yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. Alisher Navoiyning asarlari, ularning o'zbek milliy ma'naviyati va ma'rifati rivojiga qo'shgan hissasi ushbu tadqiqotimizning obyekti hisoblanadi.

¹ Ochilov E. Alisher Navoiy. -T.: "O'zbekiston", 2013. Mahmud As'ad Jo'shon. Tasavvuf va go'zallik. -T.: "Adolat", 2004. Ibrohim Haqqul. Alisher Navoiyning ijodiy merosi va uning jahonshumul ahamiyati. - T.: "Fan", 2001. -B.28. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy tanqidiy qarashlari. -T.: "Fan", 1959. Mallayev N. Genial shoir va mutafakkir. -T.: "Fan", 1968. Zoxidov V. Ulug' shoir ijodinig qalbi. -T.: "O'qituvchi", 1970. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. Nasriy bayon qiluvchi A. Hayitmetov. -T.: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1974. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. Nasriy bayon qiluvchi A. Hayitmetov. -T.: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1974. Xondamir. Makorim ul-axloq. -T.: "Fan", 1967. -B.32. Alisher Navoiy. Nazmul Javohir. Asarlar 15-tom. -T.: "Fan", 1968. Alisher Navoiy. Arbain. Asarlar. 15-tom. -T.: "Fan", 1968. Xondamir. Makorim ul-axloq. -T.: "Fan", 1967. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Asarlar. 7-tom. -T.: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1978. -B. 40. Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. Asarlar, 13-tom. -T.: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1966. Sultonmurod Olim. Naqshband va Navoiy. -T.: "Fan", 1996. Alisher Navoiy. Mahbub ul qulub. Asarlar. 13-tom. -T.: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1966. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. 7-tom. -T.: "Fan", 1968. Alisher Navoiy. Mahbubul qulub. Asarlar. 13-tom. -T.: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1966. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. 7-tom. -T.: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1978. Alisher Navoiy. Xayratul abror. Asarlar. 6-tom. -T.: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1965.

Ishning predmetini Alisher Navoiy asarlarining yoshlarni g'oyaviy tarbiyasida tutgan o'rni, komil inson va yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashdagi amaliy ahamiyati tashkil etadi.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi:

➤ mutafakkir asarlaridagi komil inson g'oyasi yuksak ma'naviyat va insonparvarlikni kishilar ongiga singdirishda, milliy g'oya takomili va barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi ko'rsatib berilgan;

➤ Navoiy talqinidagi komil inson va bugungi komil inson g'oyalari qiyosiy tahlil etilib, komil inson tushunchasining mazmun-mohiyatiga bugungi kun nuqtai nazaridan baho berilib, uning muhim xususiyatlari ochib berilgan;

➤ mutafakkir asarlarining g'oyaviy tarbiyaning muhim vositalari biri bo'lib xizmat qilishi ilmiy asosda ko'rsatib berilgan.

➤ Navoiy asarlarida ilgari surilgan bunyodkor g'oyalarni yoshlar ongiga singdirishning ilmiy usullari ishlab chiqilgan.

➤ Navoiy asarlarini o'rganish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan

Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati. Mazkur Bitiruv malakaviy ish natijalaridan ta'lim muassasalarida axloqshunoslik, adabiyot, milliy g'oya va ma'naviyat, odobnoma, Vatan tuyg'usi kabi fanlarning tegishli bandlarida, ma'naviyat targ'ibot ishlarida shuningdek, ma'naviy ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkin.

Ishning tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, to'rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 63 betni tashkil qiladi.

I Bob. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi

1.1. Mustaqillik yillarida Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, buyuk bobokolonimiz Alisher Navoiyning tavallud sanasi har yili ko'tarinki ruh va kayfiyatda o'tkazib kelinadi. Yurtimizdagi ko'pgina joylarga Alisher Navoiy nomining berilishi ham, buyuk ajdodimizga bo'lgan kuchli ehtirom va nomi e'zozlanishidan darakdir. Bu joylardan o'tganingizda millat ravnaqi, ma'naviyati va madaniyati, el-yurt

tinchliligi va ona tilimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk mutafakkir siymosi ko'z oldimizda gavdalanadi. Shunda Alisher Navoiyning birgina sharq xalqlariga emas, balki butun insoniyat ma'naviyat va ma'rifatiga beqiyos ziyo ulashganini yodga olamiz. Alisher Navoiy bugungi kunda o'zbek xalqi uchun milliy iftixor ramziga, adabiy, ma'naviy kamolot timsoliga aylangan desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi kunda ham buyuk mutafakkirning ijodiy merosi chuqur o'rganilib, tahlil qilinib inson qalbini ezgulikka yetaklovchi muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Istiqlol davrida ulug' shoirimiz shaxsiga, merosiga e'tiborning nechog'li baland ekaniga barchamiz guvohmiz. Ayniqsa, mustaqillik yillarida navoiyshunoslikda erishilgan yutuqlar, bu sohaning istiqlool davrida yangi bosqichga ko'tarilgani ulug' shoir ijodining har bir muxlisi uchun qadrli, albatta.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Alisher Navoiy asarlarining ma'naviy-axloqiy tarbiya uchun naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlab, shoir ijodiga yana bir marta jamoatchilik e'tiborini qaratishi va uni o'rganishga chaqirishining o'zi Navoiyga davlat miqyosida e'tibor berilayotgani va mustaqil O'zbekiston davlatining ma'naviy asoslarini mustahkamlashda shoir g'oyalari va fikrlari biz bilan hamisha birgaligini ko'rsatgan edi¹.

Tadqiq etishimizcha, istiqlool yillarida bizda Navoiyga munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarildi: shoir yangidan qadr topdi, shon-shuhrat shohsupasiga ko'tarildi. "...Men ishonamanki, Navoiy haykali, Navoiy bog'i shahrimizning, diyorimizning eng go'zal va asosiy ziyoratgohi bo'lib qoladi. Bu yer yillar, asrlar davomida katta xalq tantanalari, qariyalarimizga, yosh avlodimizga, xalqimizga malham, ruhiy madad beradigan sevimli va maroqli bir oromgohga aylanadi, degan katta umidim bor. Bu bog' ijod ahli uchun ilhom va kamolot maskaniga aylanib ketsa, ajab emas...". O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov bundan yigirma besh yil avval - 1991 yil 28 sentyabrda

¹ Ochilov E. Alisher Navoiy. –T.: "O'zbekiston", 2013.-B.169.

O'zbekiston Milliy bog'ining hamda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi munosabati bilan mazkur bog'da barpo etilgan haykalning tantanali ochilish marosimida aytgan bu so'zlarni bugun xalqimiz, ayniqsa, ziyolilarimiz katta hayajon va minnatdorlik bilan eslaydi.

Mustaqillik sharofati bilan Navoiy ijodiga yangicha qarash boshlandi. Mamlakatimizda shoir nomini qadr toptirish maqsadida quyidagi huquqiy asoslar yaratildi:

➤ “Alisher Navoiyning 550 yilligini nishonlash to'g'risida”gi O'zbekiston Prezidentining 29.01.1991 yildagi Farmoni;

➤ “O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining adabiyot institutiga Alisher Navoiy Nomini berish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 17.09.1991 yildagi 236-son qarori;

➤ “Adabiyot, san'at va me'morchilik sohasida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti berish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.09.1991 yildagi PF-264-son Farmoni;

➤ “Adabiyot, san'at va me'morchilik sohasida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotini berish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.02.1994 yildagi PF-757-son Farmoni;

➤ “Alisher Navoiy tavalludining 560 yilligini nishonlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.02.2001 yildagi 67-son qarori;

➤ “Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.04.2002 yildagi 123-son qarori;

➤ “Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.04.2002 yildagi 123-son qarori;

➤ “Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.04.2002 yildagi 123-son qarori;

➤ “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.04.2002 yildagi 123-son qarori;

➤ “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i hududida Adiblar xiyobonini barpo etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.04.2017 yildagi PQ-2894-son Qarori;

➤ “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.11.2017 yildagi 891-son qarori¹.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillik asosini, milliy g‘oya o‘zagini aynan Alisher Navoiy merosiga bog‘lab o‘tgan desak adashmagan bo‘lamiz. Nazarimizda, ularning orzu-umidlari mushtarak bo‘lgan. Bu ikki tarixiy shaxs insoniy g‘oyalar ijodkori, ilm-fan, madaniyat va ijod homiysi, xalqparvar, mamlakat ravnaqi uchun kurashchi sifatida insoniyat tarixidan mangu joy olishga munosib. Zero, Alisher Navoiy bir umr o‘zbek tilining dunyoda o‘z o‘rnini topishi yo‘lida kurashgan. Islom Karimov ham O‘zbekiston rahbari bo‘lgach, dastlabki qilgan buyuk ishlaridan biri - o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish bo‘lganini eslash kifoya. Qarangki, Birinchi Prezidentimizning so‘nggi ulug‘ islohotlaridan biri ham millat ruhi - ona tilimiz va adabiyotimizni taraqqiy ettirishga xizmat qiladigan alohida universitet tashkil etishga oid bo‘ldi.

Bugun biz aynan Alisher Navoiy orzu qilgan, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning ulug‘ kurashi hosilasi bo‘lgan osoyishta hayot, obod turmush, yuksak ma‘naviyat va taraqqiyotdan bahramandmiz. Bu kunlarning yanada ziyoda bo‘lishiga, bu buyuk ishlarning munosib davom etishiga hissa qo‘shish barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir.

Mustaqillik Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganishning yangi bosqichini boshlab berdi. Sermahsul va serqirra shoirning XX jildlik “Mukammal asarlar to‘plami” (1987-2003) va shu asosda X jildlik “To‘la

¹www.lex.uz/ O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

asarlar to'plami" (2011)ning nashr etilishi adabiy-ma'naviy hayotimizda katta voqea bo'ldi. Bugun ular ta'limning barcha bo'g'inida o'rganilmoqda. Yurtimiz viloyatlaridan biriga, mamlakatimizning asosiy kutubxonasiga, teatrlar, oliy ta'lim muassasasi, qator mahallalar, ko'chalar-u xiyobonlarga ulug' bobomizning nomi berilgan. Adabiyotga, ijodkor ma'naviy merosiga bunday yuksak hurmat-e'tiborni dunyoning boshqa mamlakatlarida uchratish qiyin.

Klassik merosimizni o'rganish bo'yicha ba'zi yirik ishlar amalga oshirildi. Fandagi mavjud yo'nalishlar asta-sekin takomillashib bormoqda. Yoqubjon Ishoqovning "Naqshbandiya ta'limoti va o'zbek adabiyoti" (2002), Najmiddin Komilovning "Xizr chashmasi"(2005) hamda Ibrohim Haqqulning "Navoiyga qaytish" (2007) kitoblari buning yorqin dalilidir. Ushbu kitoblardagi turkum maqolalarda Navoiy ijodi zohiriy va botiniy-irfoniy ma'nolar uyg'unligida o'rganilgan. Bunday tadqiq yo'lining klassik merosimizni o'rganishda muayyan an'anaga aylanib borayotgani quvonarli hol. Sharq she'riyatining o'ziga xos ko'pma'nolilik xususiyatini anglash, uni g'oya va badiiy unsurlar tanosubida (maydalab, alohida masala yoki muammolar doirasida) o'rganish har bir ijodkorning dunyoqarashi, badiiy mahoratini to'g'ri anglash va, eng muhimi, uning ijodiy laboratoriyasiga yaqinlashishga imkon beradi¹.

Ayni vaqtda ko'plab xorij mamlakatlarida shoir asarlari turli tillarda nashr etilmoqda, badiiy va ilmiy merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiyalar o'tkazilmoqda. Tokio, Moskva, Boku kabi shaharlarda Navoiy bobomizning muazzam haykallari qad rostlab turibdi. Merkuriy planetasidagi kraterlardan biri ham buyuk mutafakkir nomi bilan ataladi. Bularning barchasi ulug' shoir asarlari nafaqat o'zbek xalqining, balki butun insoniyatning ma'naviy merosi ekanidan dalolatdir².

Navoiyga davlat miqyosida ahamiyat berilayotgani tufayli navoiyshunoslikda sifat o'zgarishlari vujudga kelmoqda, tadqiqotlarda ilmiy xolislik va nazariy teranlik ko'zga tashlanmoqda, olimlar shoir ijodini jahon

¹ Mahmud Sa'diy, Ahmad Otaboy. Navoiyning hududsiz olami.//“O'zbekiston adabiyoti va san'ati”, 2010 yil 6-son.

²www.uza.uz/ Alisher Navoiy va XXI asr.

soʻz sanʼati kontekstida olib oʻrganishga kirishmoqdalar. Zero, Navoiy faqat oʻzbeklar yoki turkiy va forsiy xalqlarning emas, balki barcha jahon xalqlarining shoiri, u dunyoviy miqyosdagi tafakkur sohibi. U oʻz asarlarida bashariy muammolarni koʻtarib chiqqan, umuminsoniy qadriyatlarni ulugʻlagan, jahonshumul masalalarni yechishga uringan. Binobarin, shoir asarlarining xalqaro andozalar asosida yangicha nuqtai nazardan oʻrganilishi, Navoiyning falsafiy qarashlari, merosining diniy-tasavvufiy mohiyati, badiiyatini tadqiq etishga qiziqishning ortishi Navoiy dahosini butun ulugʻvorligi bilan anglashga imkon yaratishi shubhasiz.

Bugun davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev oʻz chiqishlarida Navoiy hikmatlarini barchamizga eslatayotgani, yoshlar oʻrtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratayotgani ziyolilarimizni yanada ruhlantirmoqda.

Bizningcha, oʻzbek xalqining buyuk mutafakkiri Alisher Navoiyning ilmiy-falsafiy merosi va ijodiyoti, maʼnaviyat va maʼrifat haqidagi gʻoyatda sermazmun va koʻp qirrali taʼlimoti endilik-da butun taraqqiyparvar insoniyatning boyligi boʻlib qoladi. Uning oʻlmas asarlarida oʻzining chuqur ilmiy ifodasini topgan xalq va Vatan, inson va uning baxt-saodati, tinchligi va osudaligi haqidagi qimmatli gʻoyalari va taʼlimoti umuminsoniyatni maʼnaviyat va maʼrifatga, ezgulik va hidoyatga daʼvat etmoqda, zulm-zoʻravonlikdan, nodonlik va jaholatdan xalos boʻlishga, ijtimoiy adolat tantanasi uchun kurashishga chorlamoqda.

Buyuk mutafakkir bobomiz qariyb olti yuz yil narida turib boʻlsa-da, nafaqat oʻz xalqining, balki banibashariyatning ham maʼnaviy olamini boyitishda bevosita ishtirok etmoqda, ruhiy madadkor boʻlib turibdi. Kurrai zaminda uning asarlaridan bahramand boʻlmagan, ilgʻor gʻoyalari va taʼlimotidan ruhiy quvvat olmayotgan, ijodiy foydalanmayotgan mamlakat, xalq va millat yoʻq, deb bemalol aytish mumkin. Alisher Navoiy asarlari jamiki odamizotga mehnat va halollikdan, doʻstlik va hamkorlikdan, rostgoʻylik, soflik va samimiylilikdan muhim hayotiy saboq bermoqda. Buning ustiga gʻaromxoʻrlik va alolatsizlikni, fitna-fujur, oʻzaro nizo va qonli toʻqnashuvlarni, vayronagarchiliklarga sabab boʻladigan urushlarni

esa keskin qoralamoqda. Ana shu ma'noda olganda, Alisher Navoiy ta'limoti faqat milliy ahamiyatga ega bo'lib qolmasdan, umumbashariy qimmatga ham egadir. Navoiy umuminsoniyatga xos bo'lgan daholardan biridir. U bashoratgo'y alloma sifatida o'rta asrlar sharoitidayoq, "Umidim uldirki va xayolim andoq kelurki, so'zim martabasi avjidan quyi enmagay va bu yozgan asarlarimning tantanasi a'lo darajadan o'zga yerni yoqtirmagan", degan edi.

Navoiy tabiatdagi tong tasviri vositasida odamzodning ibtido tongi manzarasini chizgan, ya'ni majoz orqali haqiqatni ifodalagan.¹

1991 yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi yurtimizda katta tantana bilan nishonlandi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta'sis etildi. Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i barpo etildi va bu bog' o'rtasida shoirning salobatli haykali qad ko'tardi. Mamlakatimizda Alisher Navoiy xotirasi yuksak darajada e'zozlanadi. Bir viloyat, shahar, oliy o'quv yurti (Samarqand davlat universiteti), Toshkentdagi Davlat kutubxonasi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti, Adabiyot muzeyi, Toshkentdagi Katta akademik opera va balet teatri, San'at saroyi, Toshkentdagi metro bekati, o'nlab ko'chalar va jamoa xo'jaliklari uning nomi bilan atalgan. 2009 yilda Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi ta'sis etildi.

2018 yil 7 martkuni Samarqand shahridagi Alisher Navoiy nomidagi markaziy istirohat bog'i hududida o'zbek va tojik adabiyotining ikki buyuk mutafakkiri – Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy haykali o'rnatildi.

O'tgan asr oltmishinchi yillarida taniqli haykaltaroshlar – H.Husniddinxo'jayev va V.Lunev tomonidan qizil granit toshdan yasalgan ushbu haykal ilgari Samarqand shahridagi sobiq "Afrosiyob" mehmonxonasi yonida, ko'rimsiz joyda edi. Keyinchalik haykal bu yerdan ko'chirildi.

2018 yil 27 sentyabr Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Emomali Rahmon Dushanbe shahrida tashkil etilgan Nizomiddin Alisher Navoiy nomidagi istirohat bog'iga tashrif buyurdi. Mazkur park Tojikiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi farmoyishiga muvofiq tashkil etilgan.

¹ Uzoq Jo'raqulov „Hayrat haqiqati“ Ma'naviy hayot jurnali № 1 2018

Farmoyishda tojik va o'zbek xalqlarining do'stligi ramzi sifatida bog' markaziga Nuriddin Abdurahmon Jomiy va Nizomiddin Alisher Navoiy haykali o'rnatilishi belgilangan. Haykal loyihasini yaratish bo'yicha tanlov o'tkazilgan.

Davlatimiz rahbarining tashrifi arafasida parkka buyuk mutafakkir shoirlar haykali o'rnatildi. 27 sentyabr kuni bu yerga davlat va hukumat vakillari, adiblar, yoshlar jam bo'ldi. Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmon mazkur istirohat bog'i va haykalni tantanali ravishda ochdi. Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy haykali poyiga gullar qo'ydi¹.

Tojikistonda shunday bog' va yodgorlik majmuasi ochilishini bu borada mamlakatimizda qilinayotgan ishlarning mantiqiy davomi deyish mumkin. Ma'lumki, joriy yil 7 mart kuni Samarqand shahrining Alisher Navoiy nomidagi markaziy istirohat bog'ida Navoiy va Jomiy haykali o'rnatilgan edi. Yana bir e'tiborli jihati, bu park yonidagi ko'cha ham Abdurahmon Jomiy nomi bilan atalgan, Navoiy bog'i boshqa bir fors-tojik shoiri Abu Abdullo Rudakiy maydoni bilan tutashib ketgan.

2018 yil 22 oktabrkuni Gulistonda Alisher Navoiyning maskanda ulug' shoirimizning sof misdan ishlangan salobatli haykali tantanali ravishda ochildi².

2019 yil yanvar oyidaNavoiy shahrida respublikamizda yagona bo'lgan Alisher Navoiy jamg'armasi tuzildi. Ajdodlarimiz merosini jahonga tanitish, yoshlarimizni buyuk bobolarimiz an'analari ruhida tarbiyalash kabi ulug' maqsadlar uning asosiy faoliyati yo'nalishlaridandir. Xalqaro mavqega ega jamg'arma saytida mavzuga doir eng muhim yangiliklar, ilmiy tadqiqotlar joylashtirib borilishi rejalashtirilgan. Kelgusida Rossiya, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston, Afg'oniston, Turkmaniston va boshqa davlatlarda jamg'armaning filiallarini ochish ko'zda tutilyapti³.

¹ Dushanbe shahrida Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy haykali ochildi.//Xalq so'zi, № 200, 2018 yil, 27 sentabr.

² Shernazarov A. Gulistonda Alisher Navoiyning yangi haykali ochildi. //Xalq so'zi, № 219, 2018 yil, 23 oktabr.

³ Eshboyev T. Alisher Navoiy jamg'armasi tuzildi. //Xalq so'zi, № 16 (7246), 2019 yil 24 yanvar.

Har yili Alisher Navoiy tug'ilgan kuni 9 fevralda ilmiy-an'naviy konferensiya o'tkazilib, Alisher Navoiy merosini o'rganish sohasida qilingan yillik ishlarga yakun yasaladi¹.

2019 yilning 5 fevralida Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi III an'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi².

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Navoiy viloyat Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi, Alisher Navoiy jamg'armasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston respublikasi Fanlar Akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Navoiy davlat pedagogika instituti hamkorligida tashkil etilgan Xalqaro konferensiyaga Ozarbayjon, Afg'oniston, Boshqirdiston, Vengriya, Qozog'iston, Janubiy Koreya, Mo'g'uliston, Rossiya, Turkiya, Shvetsiya, Hindiston, Turkmaniston, Tojikiston kabi 15 ga yaqin davlatlardan 50 nafardan ortiq navoiyshunos olimlar, shuningdek respublikamizning barcha viloyatlaridan taniqli akademiklar, professorlar, ijodkor ziyolilar, ma'naviy soha mutaxassislari, faollar, talabalar va yosh olimlar tashrif buyurishgan³.

Erta tongdan Navoiy shahri markazidagi istirohat bog'ida savlat to'kib turgan Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo'yish marosimi bo'lib o'tdi. Navoiy asarlarining yangi talqin va ko'rinishda chop etilgan namunalari asosida badiiy ko'rgazma tashkil etildi. Ushbu ko'rgazmadan Navoiyning qayta nashr etilgan 10 tomlik asarlari ham mehmonlar e'tiboriga havola etildi. Shuningdek, tadbirda adabiyotimizning eng durdona asarlaridan iborat kitoblar ko'rgazmasi hamda aksiyasi tashkil etildi. "Yoshlar markazi"ning katta majlislar zalida bo'lib o'tgan konferensiyani Navoiy viloyat hokimi Q. Tursunov kirish so'zi bilan ochib, o'z nutqida Navoiy ulug' shaxsiyat sohibi sifatida har birimiz uchun ibrat bo'la olishini alohida ta'kidlab o'tdi. Konferensiyada Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari A.Qodirov, vengriyalik navoiyshunos olim Benedikt Perri, Turkiyaning

¹www.ziyouz.com/ Alisher Navoiy.

²http://uza.uz/uz/Navoiyda_xalqaro_konferensiya_bo_lib_o_tmoqda.

³http://uza.uz/uz/Navoiy_shahrida_an_anaviy_xalqaro_ilmiy_konferensiya_bo_lib_o_tmoqda.

Amasiya universiteti rektori, professor Metin Orbay, Shvetsiya Navoiyshunos olim Shafiqa Yorqin, Janubiy Koreyaning Pusan chet tillar universiteti professori Azamat Akbar va boshqalar so'zga chiqib, Navoiy o'z ijodi, badiiyatining qudrati bilan jahon adabiyoti rivojiga katta ta'sir ko'rsatganligi, uning bebaho ma'naviy, ilmiy, badiiy va madaniy-tarixiy asarlari butun insoniyatning bebaho merosi ekanligini e'tirof etishdi.

Xulosa qilib shuni aytaolamizki, Alisher Navoiy xalqimizning insonparvarlik g'oyalarini, ma'naviyat va ma'rifatini yuksaltirishda, boshqa xalqlar tomonidan tan olinishida, xalqning ma'naviy olamini boyitish tarixida ulkan iz qoldirganligiga tasanno aytish joiz. Navoiy yozib qoldirgan boy ma'naviy meros xalqimizning g'urur va iftixori, milliy o'zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Buyuk mutafakkir bobomizning asarlarini o'rganib, ezgu g'oyalariga amal qilib va izlanishlardan to'xtamasligimiz darkor!

1.2. Alisher Navoiy ijodida barkamol avlodni tarbiyalash g'oyalari

Navoiy asarlarining g'oyaviy tarbiyada tutgan muhim o'rni uning komil insonni, bugungi kun nuqtai nazari bilan aytganda, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyati bilan belgilanadi.

Komil inson masalasi qadimgi davrdan bashariyatni qiziqtirib, u haqidagi ma'lumotlar og'zaki va yozma manbalarda, mifologiyaga bag'ishlangan asarlarda, mutafakkirlarning ijtimoiy-falsafiy merosi va badiiy adabiyotda saqlanib kelgan.

Komil insonni voyaga etkazish asrlar mobaynida kishilarning orzusi, istagi, ideali bo'lib kelgan. U to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlar turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Komillik to'g'risidagi fikrlarning evolyusiyasi, takomillashuvi, uning qanday bo'lishi tuzumning xarakteri, ishlab chiqarish darajasi, davlatni boshqarish uslubi, ilm-fan va madaniyatning rivojiga bog'liq bo'lgan. SHu nuqtai nazardan qaraganda, taniqli tasavvufshunos Mahmud As'ad

Jo'shonning fikriga qo'shilsa bo'ladi. U "Xulqlar o'zgaradimi?" – degan savolga, "o'zgaradi, faqat ta'lim-tarbiya tufayli"¹, - deb javob beradi.

Komil inson g'oyasi o'z mohiyat-e'tibori bilan milliy, umuminsoniy va gumanistik mazmunga egadir. Har bir jamiyat etuk, har tomonlama kamolga etgan, o'zida butun ijobiy, oliyjanob fazilatlarni to'plagan barkamol avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Shuning uchun komil inson masalasi o'tmishimizning uzoq-uzoq davrlariga borib taqaladi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da, buddaviylik va islom ta'limotlarida komil inson g'oyasi etakchi o'rinda turadi. Masalan, zardushtiylik uch asosiy axloqiy qoidaga tayanadi: "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal". Mana shu uchta qoidaga rioya qilgan odam kamolotga etgan hisoblanadi.

Komil insonning suhbatlari qudratli kuchga ega, u yurakka yetib boradi va mohiyatlarni anglashga ko'maklashadi. Kimki (tariqat yo'lida) biror narsaga ega bo'lgan bo'lsa, bu donolar suhbatlari tufaylidir.²

Uyg'onish davrining buyuk faylasufi, "ikkinchi muallim" unvonini olgan mutafakkir Abu Nasr Forobiy (873-950) komil inson to'g'risidagi g'oyalari uning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlarida o'z in'ikosini topdi.

Alisher Navoiy komil inson to'g'risida butun bir ta'limot yaratdi. Uning nasriy va nazmiy asarlari, g'azallari, "Xamsa"ga kirgan dostonlari, "Nasoyim ul-muhabbat", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Holoti Sayid Hasan Ardasher", "Mahbub ul-qulub", "Majolis un-nafois", "Lison ut-tayr" va boshqalarda komil inson qanday bo'lishi kerakligi, qaysi fazilatlarni egallashi lozimligi haqidagi fikrlar har tomonlama yoritib berilgan.

Navoiyning komil inson ta'limoti negizini tabiat, inson va Allohga bo'lgan muhabbat belgilaydi. U payg'ambarlar, aziz avliyolar, piru komillar, orifu so'fiylar to'g'risida so'z yuritganda, g'azal va ruboiylarida tabarruk zotlarning xislati fazilatlari haqida ishq-muhabbat bilan yozgan. Tasavvufshunos Ibrohim Haqqul fikricha, "Navoiyning komillik haqidagi qarashlari to'rt ustuvor asosga,

¹Mahmud As'ad Jo'shon. Tasavvuf va go'zallik. –T.: "Adolat", 2004. –B.15.

²Abdulla Ulug'ov. „Ma'nolar xazinasiga kalit“. Ma'naviy hayot jurnali № 1, 2017

ya'ni Axloq go'zalligi, qalb tasfiyasi, Ruhiyat qudrati va tafakkur balog'atiga tayanadi"¹.

Mutafakkir payg'ambarlar, avliyo va oriflarni, yirik karomat sohiblarini komil insonlar qatoriga qo'shadi. Bunday zotlar doimo xalq g'amida yashaydilar, atrofdagilarga mehr-muruvvat ko'rsatib, beva-bechoralarga yordam beradilar. Barkamol zotlar insonlarning eng a'losi bo'lib, butun umr poklanish va Haq yo'lini ixtiyor qilgan kishilardir.

Mutafakkir nabiyalar, ya'ni payg'ambarlardan so'ng valiylarni komil insonlar deb talqin qilgan. Alloma avliyolar amal qiladigan tavba, halol rizq bilan oziqlanish, tariqat odobini saqlash, kamtarlik, muloyimlik, saxiylik, sabrlilik singari xislatlarga to'xtab o'tadi, xususan, u halol luqma deganda, valiyni biror kasb bilan mashg'ul bo'lib, o'z mehnati bilan kun ko'rishini tushunadi. Darhaqiqat, tasavvufning yirik vakillari, valiylar muayyan bir kasb-hunar bilan shug'ullanganliklari tarixdan ma'lum. Navoiyning zikr qilishicha, "mashoyixlardan Xoja Abdulloh Ansoriy etikdo'z, Shayx Muhammad Sakkok pichoqchi, Shayx Abu Hafz Haddod temirchi, Shayx Abulabbos Omiliy qassob, Shayx Abulhasan muzayin, Shayx Banon hammol, Bahovuddin Naqshband esa matolarga naqsh soluvchi bo'lganlar"².

Ulug' mutafakkirning "Farhod va SHirin", "Layli va Majnun" dostonida ham tasavvuf ta'limoti nuqtai nazaridan badiiy timsollarni talqin qilish muhim o'rin egallaydi. Dostonda Farhod va SHirin, Layli va Majnun o'rtasidagi sevgi-muhabbat majoziy ishq, ya'ni Shirin, Laylilar siymosida Allohga bo'lgan ishq bir-biri bilan bog'lanib ketgan. Unda zohiriylisiz ilohiy ishqqa, dunyoviylikisiz Haqqa etishib bo'lmasligi to'g'risida fikr yotadi.

Navoiy nazarida insonni sharafllovchi jamiki fazilatlarini komil inson g'oyasini ustuvor jihatlari deb kiritish mumkin. Ammo bular orasida u imon, qanoat, saaxovat, ilm –ma'rifat, vafo, himmat, xoksorlik, adolat, adab kabi sifatlarni ajratib olib, qariyb hamma asarlarida qayta-qayta turli voqealar tasviri

¹ Ibrohim Haqqul. Alisher Navoiyning ijodiy merosi va uning jahonshumul ahamiyati. – T.: "Fan", 2001. –B.28.

² Alisher Navoiy. Nasoyimul-muhabbat. MAT. T. 17. –T.: "Fan", 2001. –B. 15.

munosabati bilan ta'kidlab o'tgan. Bu sifatlar nainki odamni ulug'vor, fozil va mo'tabar etadi, balki Ilohga yaqinlashtiradi, ilohiy xislatlarga moyil qiladi, deydi ulug' mutafakkir. Bu axloqiy talablar Navoiy davri mafkurasidan kelib chiqadi, aniqrog'i asrlar davomida ishlangan, qoidaga kiritilgan, ta'lim-tarbiyaga singdirilgan g'oyalardir.

Navoiy nazarida komil inson xayoliy bir timsol emas, balki o'zida butun zohiriy va botiniy bilimlarni, insoniy fazilatlarini mujassam etgan real hayotda bor kishi. Ikkinchidan, Navoiy uchun Muhammad Payg'ambar boshqa nabiy-larga nisbatan yuksak darajada kamolga yetgan ulug' zot. Uchinchidan, axloqiy poklik, nafsni tiyish, jabr-zulm, adolatsizlik, haqsizlik singari hayot qiyinchiliklariga qarshi kurashish Farhod insonparvarligining o'zagini tashkil qiladi va komil inson sifatida shakllanishining asosi bo'lib xizmat qiladi. Unda naqshbandiylik tariqatining, futuvvat, ya'ni javonmardlik oqimining ta'siri seziladi. To'rtinchidan, sho'rolar davrida Navoiy dostonlaridagi ikki yoshning bir-biriga muhabbati faqat dunyoviy, zohiriy nuqtai nazardan talqin qilindi, vaholanki, komil inson g'oyasini tahlil qilganda, uning dunyoviy va ilohiy, zohiriy va botiniy jihatlari, ularning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini yoritish zarur masalalardan biridir.

Alisher Navoiyning komil inson g'oyasi davlatni boshqarishda, uning tasavvuridagi ideal, mukammal jamiyat to'g'risidagi qarashlarida, odil shoh haqidagi fikr-o'ylarida, hukmdorning raiyatga munosabatida, diniy-huquqiy qoidalarga rioya qilishida o'z in'ikosini topadi.

Alloma "Xamsa"ga kirgan dostonlarida, ayniqsa, "Saddi Iskandariy", "Sab'ai Sayyor", "Farhod va SHirin"da insonlarni baxt-saodatga eltuvchi, mamlakatni ravnaq toptiruvchi, xalqi farovon yashovchi, jabr-zulm, adolatsizlik, zo'ravonlik, haqsizlikdan xoli bo'lgan mukammal jamiyat va adolatli, har tomonlama komil podshoh timsolini tasvirlaydi.

Ulug' mutafakkir odil podshohni komil insonlar sirasiga kiritar ekan, agar u adl yo'lidan borsa mamlakat obod bo'lishini, xalqning turmushi yaxshilanishini, farovonlik, mo'l-ko'lchilik bo'lishini ta'kidlaydi. "Ochlar ovqati muruvvat va baxshishi dasturxonidan, yalang'ochlar kiyimi marhamat va ehsoni xazinasidan.

Mamlakat bog'ini obod qilishga yomg'ir bulutiday serob va mamlakat ahli ko'zini yoritishga xuddi oftob. O'zga mamlakatning aholisi va xalqi uni orzu qiladilar va boshqa o'lka mazlumlari uning adolati to'g'risida so'z yuritadilar. Yaxshi otiga atab olimlar risolalar tuzadilar va yaxshi sifatleri haqida shoirlar qasidalar yozadilar, cholg'uchilar uni deb kuylaydilar va bastakorlar unga atab kuy yaratadilar..."¹, – deydi alloma adolatli podshoh xususida.

Alisher Navoiy do'sti sulton Husayn Boyqaroda ham asarlarida tasvirlangan adolatli, xalqparvar, oqil podshohni ko'rishni istaydi. Doimo uni ezgu ishlarga, xalq dardi bilan yashashga undaydi. Masalan, Navoiy Husayn Boyqaroga "Hech vaqt ko'ngulni tengri taolo yodidin g'ofil va musulmonlar dodidin otil qilmang. Do'stlar fikridin va dushmanlar makridin beparvolig' joyiz ermas, va bu ish nadomatdin o'zga natija bermas"², – deb nasihat qiladi, saltanat ishlarini boshqarishda adolatli, xalqparvar, insonparvar bo'lishga chaqiradi.

O'rta asrlarda podshoh Xudoning yerdagi xalifasi, degan fikr ustuvorlik qilar edi. Unga ko'ra, podshoh adolat ramzi hisoblanib, uni yer yuzi aholisiga tatbiq qilishi, o'z faoliyatida faqat adolat qonun-qoidalarini bo'yicha ish tutishi, undan chetga chiqmasligi lozim. Ushbu masala yuzasidan tadqiqotlar olib borgan ingliz islomshunos olimi E.Rozentalning "Musulmon mamlakatlarda davlat boshlig'ining faoliyatiga 2 xil nuqtai nazardan baho berish odat bo'lgan. Bular, ilohiy-huquqiy va tarixiy-siyosiy jihatlardir. Qolaversa, davlat boshliqlari har qanday sharoitda ham musulmon ekanligini yodda tutib, shariat qonun-qoidalariga asosan mukammal islom davlatchiligining ustuvorligiga ishonishgan"³, - degan e'tirofi ushbu fikrni tasdiqlaydi. Hazrat Navoiy ham o'z asarlarida podshoh xalqning yer yuzidagi posboni, Allohning yerdagi vakili, degan fikrga qo'shiladi. Alloma "Mahbub ul-qulub" asarida bu haqda - "Adolatli podshoh haqdan xaloyiqqa ko'rsatilgan marhamatdir, mamlakat uchun tinchlik va farovonlik sababidir.

¹ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT. T. 14. –Toshkent: Fan, 1998. –B. 13.

² Alisher Navoiy. Munshaot. MAT. T. 14. –Toshkent: Fan, 1998. –B. 156.

³ Rosenthal E. Some aspects of islamic political thought // Islamic culture. -An English Quarterly, 1948, January. – P. 6.

Quyosh bilan bahor yomg'iridek qora tuproqdan gullar ochar va mamlakat kishilari boshiga oltin bilan durlar sochar"¹, - deydi.

Hazrat Navoiy zolim, johil va fosiq podshohlarning kirdikorlarini ochib tashlaydi: "Adolatli podshoh, - deb ta'kidlaydi shoir, - ko'zgu va bu uning teskarisidir. U yorug' tong, bu uning qorong'i kechasidir. Zulm uning ko'ngliga yoqimli va fisq uning xotiriga sevimli. Mamlakat buzugligidan yuragida birikish, xalq parishonligidan xotirida tinchish. Obod joylar uning zulmidan vayrona, kabutar uyalari boyqushga oshyona. May seli uning bazmida oshib-toshganidan mamlakat obodonliklarini vayrona qilgan"².

Mutafakkir "Lison ut-tayr" asarida yana bir holatga e'tibor beradi, shunday shaxslar bo'ladiki, nuqsoni bo'laturib, komillikka da'vogarlik qiladilar, o'zlarini komil inson ekanliklari to'g'risida lof uradilar. Navoiyning fikricha, o'zini yetuk va nuqsonsiz deb hisoblaganlar hech qachon komil bo'lolmaydilar:

Noqis uldurkim o'zin komil degay,
Komil ulkim nuqsin isbot aylagay.
O'z kamolidin demas ahli kamol,
Ahli nuqson ichradur bu qilu qol.
Senki nuqson ichra komilsan base,
Olim oytib o'zni, johilsan base.
Kim o'zin komil ko'rar noqisdur ul,
Nuqs bermaydur kamoli sori yo'l³.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, birinchidan, hazrat Navoiy mukammal jamoa, odil podshoh va komil inson tushunchalarining o'zaro uyg'unligini asarlari orqali targ'ib qildi. Ikkinchidan, Alisher Navoiy kuchli markazlashgan davlatni, mukammal jamiyatni tasvirladi, bunday davlat tuzumini orzu qildi. Faqatgina orzu qilib qolmasdan, o'zining rejalarini hayotga tatbiq qilmoqchi bo'ldi. Uchinchidan, mutafakkir komil insonni keng ma'noda tushunib, insonning komilligi yoki noqisligini baholashda axloq va xulq-odob qoidalarini asosiy mezon sifatida e'tirof

¹ Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub". MAT. T. 14. -Toshkent: Fan, 1998. -B. 12.

² O'sha asar. -B. 14.

³ Alisher Navoiy. "Lison ut-tayr". MAT. T. 12. -T.: Fan, 1996. -B. 199.

etdi. To'rtinchidan, Navoiy o'z idealidagi mukammal davlat va odil shohning xayoliy obrazini "Hayratul-abror", "Farhod va Shirin", "Sab'ai Sayyor", "Saddi Iskandariy" kabi dostonlarida yaratibgina qolmasdan, o'sha davrdagi hukmdorlarni to'g'ri yo'lga solishga, hayotda adolatli va komil bo'lishga chaqirdi.

Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi hozirgi mustaqillik sharoitida dolzarb bo'lib turibdi. Buning boisi shuki, mustabid tuzumdan bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatga o'tilayotgan davrda ushbu masala yanada keskinroq qo'yilmoqda. Kishilararo munosabatda ba'zi qadriyatlarning qadrsizlana boshlaganligi, yoshlar orasida giyohvandlik, firibgarlik, ishyoqmaslik, tekinxo'rlik, o'g'rilik va boshqa yaramas illatlarning tez-tez sodir bo'lib turishi barkamol avlodni tarbiyalashga diqqat-e'tiborni qaratishni taqozo etmoqda.

Barkamol avlod masalasiga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning asarlarida, nutq va ma'ruzalarida ham alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat Dasturi to'g'risidagi farmonlarida quyidagilarni ta'kidlab o'tganlar: "Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir"¹.

Navoiy ijodi muhtasham bir qasr, barcha uning yonida aylanib yuribdi xolos. Modomiki, bepoyon tafakkur sarhadlarini fath eta olgan she'riyat sohibqironning oltin merosi millat ruhini tarbiyalar ekan, uning ijodini ijodi kabi qomusiy ravishda tadqiq va etish, bu jarayonda, ayniqsa, yoshlarda rag'bat uyg'ota olish bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolaveradi. Mana shunday buyuk ihtirolar sohibini bilish, vatandoshimiz ekanligini his qilib yashash hech kimni befarq qoldirmasa kerak. Albatta bu barcha fuqarolarimizda, ayniqsa yoshlarda milliy g'urur va iftihar tuyg'ularini shakllanishiga xizmat qiladi.

Mustaqil O'zbekiston ma'naviy siyosatining asosini komil insonlarni tarbiyalab yetishtirish g'oyasi yotadi. Barkamol insonlarni tarbiyalab yetishtirish

¹ "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat Dasturi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 2018-yil 27-iyun.

vatanimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan hozirgi davrda millat quyoshi Alisher Navoiyning ma'naviy merosi, serqirra ijodini o'qish va o'rganish yoshlar ma'naviyatini o'stirish, Navoiy mezonidagi komil inson qanday bo'lishi kerakligini teran anglashlari va ulug' ajdodlariga munosib vorislar bo'lib yetishishlari uchun ilmiy-ma'rifiy jihatdan yordam beradi.

Muxtasar qilib aytganda, mutafakkir ma'naviy merosining yosh avlodni g'oyaviy tarbiyasida tutgan o'rni, inson tarbiyasi bilan bog'liq o'git-nasihatlari, fikr-mulohazalari, talab-ko'rsatmalari, orzu-istaklarini bir yerga jamlab, ularni tartib bilan joylashtirib chiqsa, insoniy kamolotga erishish yo'llari ko'rsatilgan o'ziga xos nazmiy dastur, qo'llanma vujudga keladi. Shu bois, biz ko'targan mavzuga olimlarimiz, tadqiqotchilarimiz yana qaytadilar, degan umiddamiz.

II Bob. Alisher Navoiy asarlarida inson masalasi

2.1. Alisher Navoiy insonparvarlik g'oyalarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni

Buyuk o'zbek shoiri, ulug' mutafakkir, taniqli davlat arbobi Alisher Navoiyning ijodi serqirra, asarlari ijtimoiy-falsafiy, siyosiy, axloqiy fikrlarga boy bo'lib, insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgandir. Navoiy insonni nihoyatda ulug'laydi, uni yashashga, baxtli-saodatli bo'lishga, dunyoni obod qilishga, o'zidan yaxshi iz qoldirishga chaqiradi. Inson Xudoning zuhurotidan iboratligini anglamaslik baxtsizlikka, halokatga olib boradigan nodonlik, deydi shoir. Ana shuning o'zi ham Alisher Navoiy falsafiy g'oyasi asosini tashkil etadi.

Navoiyning har bitta asari chuqur ta'limiy o'gitlarga, boy tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Ular aqlni toblaydi, inson qalbining go'zallashishiga sabab bo'ladi. Uning asarlari bilan yaqinlashish kitobxonga ulkan ta'limiy axborotlarni beradi, uning ma'naviyatini o'tmishning nurli mash'allari bilan nurlantiradi, insondagi mudrab yotgan ko'plab ezgu tuyg'ularning yangicha bir jilva bilan

uyg'onishiga sabab bo'ladi. Ularda Vatan va vatanparvarlik, qahramonlik, mardlik, matonat, bag'rikenglik, insoniylik, insonparvarlik, mehr va muhabbat, milliy-ma'naviy qadriyatlar ardog'i mutlaqo takrorlanmas qirralari bilan namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy o'zining o'lmas asarlari bilan o'zbek xalq klassik adabiyotini jahon adabiyoti va umumbashar madaniyati miqyosiga olib chiqqan buyuk shoirdir. Navoiyning "Hamsa"si uning ijodidagi yana bir porloq cho'qqidirki, u yolg'iz o'zbek adabiyotini emas, balki butun Sharq adabiyotining bebaho bezagidir. Shoir bu besh dostonini ikki yilcha qisqa vaqt mobaynida yaratadi. Asarda inson, insoniylik belgilari, "odamiylar odamiysi", ya'ni bugunning tili bilan aytganda, komil shaxs haqida ko'pgina fikrlar uchraydi¹.

Navoiy insonni ulug'laydi. Uning ko'ngli muqaddas ekanligini takror-takror ta'kidlaydi. Ayni paytda har bir kishi ezgu nom qoldirishi, umrini yaxshiliklar qilish bilan kechirishi muhimligini uqtiradi. Buyuk insonparvar shoir o'rta asrdagi

Uyg'onish davrining boshqa ulug' zotlari singari butun hayotida haqiqiy inson qanday bo'lishi lozimligini ko'rsatdi. U o'z davridagi nohaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi va buni o'z asarlarida ifodaladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, shoirning shaxsiy na'muna bo'lganligi o'z navbatida uning asarlaridagi insonparvarlik va ezgulik g'oyalarining o'ziga hos talqinini yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. "Xamsa" dostoni Alisher Navoiyning shoh asaridir. Navoiy ona tilidagi adabiyotga mumtoz "Xamsa" an'anasini olib kirdi. Navoiy "Xamsa" si XV asrdagi xalqimiz ma'naviy taraqqiyotining ko'zgusi bo'lib, unda o'sha davr turmushi, xalq hayoti, din va diyonat, odob va axloq haqidagi qarashlar o'z ifodasini topgan va o'z navbatida boshqa "Xamsa" lardan farq qilgan alohida xususiyatlar asosida bo'lgan insoniylik va boshqa ezgulik g'oyalarining talqiniga ega. Jami 54 ming misradan iborat Navoiy "Xamsa" si 1483-1485 yillarda yozilgan bo'lib, quyidagi 5 ta dostondan iborat: "Xayrat ul – abror", "Layli va Majnun", "Farxod va Shirin", "Sab'ai Sayyor", "Saddi Iskandariy". Agar Navoiy "Xamsa"sida jamlangan dunyoqarashini yaxlit bir tizim sifatida olib qaraydigan

¹ Zahidov V. "Alisher Navoiy ijodining g'oya va obrazlar olami". -T.: "Fan", 1960.-B.7.

bo'lsak, uning markazida, shubhasiz, inson, shoirning otashin gumanizmi, odamiylik konseptsiyasi, adlu insof, sahovat va muhabbat haqidagi fikr-o'ylari, ezgulikka payvasta buyuk tafakkur olami yotadi. Navoiy ijodida eng asosiy insonparvarlik va ezgulik g'oyalarining o'ziga hoslik tomoni shundaki, o'zi yashagan davrgacha faoliyat yuritgan barcha mutafakkir va ijodkorlardan farqli ravishda ilohiylik va dunyoviylik tamoyilini uyg'unlashib ketganligidadir. Ilohiy g'oyalar, timsollar uning uchun inson hamisha intiladigan ideal olam bo'lsa, dunyo shu ideal olamning ko'zgusi, ibrat va saboq maydoni. Zero, insonda koinotning, ilohiy olamning hikmatlari, mohiyati aks etgan.

Ayniqsa, bu boradagi qarashlar "Hayrat ul – abror" dostonini asosini tashkil etadi. "Neki olami kubroda bor-olami sug'roda bor"- deydi Navoiy ushbu dostonida. Olami kubro- katta olam, ya'ni koinot, borliq. Olami sug'ro-kichik olam, ya'ni inson. Bunday qarash aslida Odam Atoning yaratilishi haqidagi rivoyatga borib taqaladi. Odam Ato, Qur'oni karimda aytilishicha , tuproqdan yaratilib, keyin unga Alloh o'z ruhini yuborib, jon ato etadi.

Demak ,inson modda va ruh yoki yoki tabiat va ilohdan vujudga kelgan. Shu bois inson tiynatining o'zida majoz va haqiqat , ilohiylik va dunyoviylik mujassam. Bu olam yagonaligi haqidagi vahdat ul-vujud ta'limotiga muvofiqdir. Shunga ko'ra, inson avvalo o'zini, keyin Alloh yaratgan jamiki ilmu hikmat, ma'rifat-ma'naviyatini bilib, o'z Xoliqini tanib, musaffo ruh holida qayta vahdoniyatga qo'shilmog'i darkor. Shu yo'lda inson axloqi poklanadi va u komillik darajasiga ko'tariladi. Alisher Navoiy soxta dindorlik, dindan o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanish , botiniy olamga qaramay, zohiriy rasm - rusumlarni bajarish bilan kerilish , riyokorlik , shavqatsizlikni qoralaydi¹.

Inson avvalo yaxshi axloqi, niyatining (himmatining) ulug'vorligi, ilohiyligi bilan inson. Agar bunday bo'lmasa, ya'ni kishi qalbida ezgulikka, xayrga muhabbat bo'lmasa, uning imoniga ishonish qiyin. Imon botiniy olamning tozaligi va butunligi, haqqa yaqinligini namoyon etib turishi kerak. Shu zaminda Navoiyning butun ijodi aqidaparastlik , diniy sxolastika va jaholatni rad etadi.

¹ Hayitmetov A. "Alisher Navoiyning adabiy tanqidiy qarashlari". -T.: "Fan", 1959.-B.52.

Aynan ushbu mulohazalar boshqa hech bir mutafakkir ijodida uchramagan. Dinning faqat ezgulik yo'lida hizmat qilishi lozimligini alohida ta'kidlagan va shunga chaqirgan. Shuning barobarida, bu masala g'oyaviy tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim jihatlardan biridir. Shuni aytish o'rinliki, hazrat Navoiy "Xayrat ul – abror" dostonida tasavvuf falsafasidagi axloq, xulq-odob qoidalari, insonparvarlik va odamiylik, nafsni tiyish, adolat va ma'rifat, tabiat va insonni sevish, ularni e'zozlash, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi g'oyalardan unumli foydalandi. Bu g'oyalar mutafakkirning boshqa g'azal va ruboiylari, dostonlari, nasriy asarlariga ham singib ketgan. I.Haqqul ta'kidlaganidek, "Navoiyning tasavvufga yondashuvi va bu ta'limotdan ko'zda tutgan maqsadi – shaxs va millat taqdiriga mas'ul, yurt taraqqiyotiga suv va havoday zarur tushunchalarning istiqboli uchun yonib kurashgan, haqiqatni faqat tanish emas, haqiqatni sevish salohiyatini ham ko'zlagan mutafakkir san'atkorning yondashuv va maqsadi edi"¹.

Mutafakkirning umuminsoniy mazmunga ega bo'lgan gumanistik qarashlari islom falsafasidan oziqlangan bo'lib, alloma o'zining asarlarida uning diniy va dunyoviy jihatlari, zohiriy va botiniy tomonlarini har tomonlama rivojlantirgan.

Allomaning inson va insonparvarlik to'g'risidagi qarashlarini tahlil qilishdan avval, uning Xudo va tabiatga munosabatiga to'xtalish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Uning fikricha, Xudo hamma mavjudotning ibtidosi, boshlang'ichini tashkil etadi. Dunyodagi hamma narsa o'tkinchi, vaqtinchalikdir, Xudo esa abadiy, nimaiki borliqda sodir bo'lsa, uning irodasi bilan amalga oshadi. Mutafakkirning fikr yuritishicha, "aql yordamida inson hamma narsalarning siru asrorini, dunyodagi o'zgarishlarni, ularning mohiyatini chuqur idrok qilolmaydi. Bunga aql ojizlik qiladi. Zeroki, inson bilimi, aqli chegaralangan. U haqiqatni to'la anglay olmaydi"². Shunga qaramasdan, Navoiy insonni aqlsiz tasavvur qilmaydi. Inson qanday ish bilan shug'ullanmasin aqlga, tafakkurga, uning kuchiga ishonishi kerak, degan fikr mutafakkir asarlarining muhim jihatini tashkil qiladi. Alisher Navoiy "Farxod va Shirin" dostonida kishilarga mehr-muruvvat ko'rsatishga, solih

¹ Haqqul I. "Navoiy izidan". // O'zbek tili va adabiyoti. 2005, 1-son.

² Mallayev N. "Genial shoir va mutafakkir". -T.: "Fan", 1968. –B.11.

amallarni bajarishga, nafsni tiyishga, kambag'allarga xayr-ehson qilishga, rahmdil va shafqatli bo'lishga, doimo xalq g'amini yeyishga, ular tashvishida yashashga insonlarni da'vat qildi, odamiylikni har narsadan yuqori qo'yadi:

“Manga ne yoru, ne oshiq havasdur, Agar men odam o'lsam, ushbu basdur”. Mufakkirning yana bir muhim xususiyati, bizning fikrimizcha, shundan iboratki, ul zot o'zining g'azal, ruboiy va dostonlarida insonparvarlikka oid qarashlarni bayon qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki o'zi buyuk insonparvar shoir degan nom qozondi, odamiylikda boshqalarga o'rnak bo'ldi. U doimo oddiy xalq g'am-tashvishiga sherik bo'ldi, ularga homiylik qildi.

Olam ko'rki bo'lgan inson vujudi tabiatdagi boshqa narsalardek, -deydi Alisher Navoiy o'tdan suvdan, havodan, tuproqdan tashkil topgandir. Navoiyning yana ta'kidlashicha, insonda his, ruh, aql bordirki, uning bu ruhiy hayoti o'sha to'rt unsurdan tarkib topgan badanlar - jismlar tomonidan harakatga keltirib turiladi. Jon va ruhni tan va jismdan ajratib bo'lmaydi, ular o'zaro bir bo'lganliklari uchun tirikdir.

Alisher Navoiy insonga yuksak baho beradi. Insonning xulq-atvori, dunyoqarashi, odob-axloqi, madaniy-ma'naviy qiyofasi, uning ta'biricha, ijtimoiy muhitga bog'liq. Inson ijtimoiy muhit mahsuli sifatida shakllanib, kamolotga erisha boradi. Boshqacha aytganda, insonni ijtimoiy mavjudotga aylantiradigan hal qiluvchi omil jamiyat, tashqi muhit, ijtimoiy sharoitlardir.

Navoiyda inson oliy mavjudot deb ta'riflanadi. Inson olamdagi butun narsalardan ustun turadi, dunyoda unga teng keladigan hech narsa yo'q. Navoiy asarlarida halollik, poklik, rostgo'ylik, iymon-e'tiqodlilik singari insonga yarashqli axloqiy-ma'naviy fazilatlar e'zozlanadi¹.

Navoiy xalq va uning manfaatlari yo'lida g'amxo'rlik qiladigan kishilarni ulug'laydi. Odamlar xursandchiligini o'z xursandchiligi, noxushligini noxushlik, deb hisoblaydigan, xayru saxovat kamarini beliga mahkam bog'lagan, agar qo'li bilan berib, xayr qilish iloji bo'lmasa tili, shirin so'zi bilan naf yetkazishga sa'y-harakat qiladigan kishilar haqida o'zining samimiy fikrini bayon etadi: “Odamni

¹ Zohidov V. “Ulug' shoir ijodinig qalbi”.-T.: “O'qituvchi”, 1970. –B.152.

bir og'iz yaxshi so'z bilan xursand qilish kerak bo'lgan vaqtda unga xazina bersang xam, u qaramaydi. So'z bilan el o'limdan najot topadi, so'z bilan o'luk tan qayta tiriladi. So'z bilan dinsizlar musulmon bo'lali; so'z bilan xayvon deganing insonga aylanishi mumkin. Bir so'z bilan qancha balolar daf bo'ladi; qancha boylik sochsang ham bunday nafga etishmaysan. Insonga xos konning gavhari, bu - so'zdir; odamzod gulshanining mevasi ham shu so'zdir.

Kishilarning so'z bilan naf yetkazish qo'lidan kelmasa, loaqal ko'nglidagi andishasi yaxshi bo'lishi kerak. Ko'ngli odamlarning xursandligidan xursand bo'lishi lozim, ularning ko'ngli noxush bo'lsa tashvishiga sherik bo'lish kerak. Kimning xalq g'amidan g'ami bo'lmasa, haqiqiy odam bo'lsang, uni odam dema. Birovning o'limidan sevingan odam yo go'rkov, yo yuvguvchi, yoki jallod bo'ladi. Ularning qaysi birini tasavvur etsang ham, tabiatning ko'rki nafrat bilan to'ladi. Lekin birov senga yaxshilik qilmoqchi bo'lsa, so'z bilan senga jon bag'ishlamogchi bo'lsa-yu, lekin gap bilan buni ifodalay olmasa, yaxshilikni tilga olganining o'zi kishi ta'biga osoyish bag'ishlaydi”¹.

Fikrimizcha, Navoiy xalq manfaati uchun ishlaydigan, xalqning baxt-saodati yo'lida kurashadigan, o'zi pok, dili pok odamlarni haqiqiy inson deb hisoblagan. Xudbin, qora ko'ngil, hasadchi, xalqqa nafi emas, zarari tegadigan kishilardan hazar qiladi. Navoiy inson odobini, xulq-atvorini birinchi o'ringa qo'yadi. Inson uchun eng muhim narsa oltin-kumush, mol-dunyo emas, balki uning odob-axloqi ekanligini quyidagicha ifodalaydi:

Oltin kumush etma kasb davlat kunidin,

Kim tortar adab ulusi mehnat to'nidin.

Gar yo'qtur adab ne sud oltinidin,

Elning adabi xushroq erur oltinidin.

Navoiyning “Xamsa”, “Nazm ul-javohir”, “Mahbub ul-qulub” asarlarida odob-axloq insonning ziynati, ma'naviy yetukligining belgilaridan biri ekanligi uqtirilgan. Jumladan, u bu haqda shunday deydi: “Odobli inson barcha

¹ Alisher Navoiy. Hayratul-abror. Nasriy bayon qiluvchi A. Hayitmetov.-T.: “G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti”, 1974. –B.97-98.

odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan go'zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqdir. Odobli o'z tengdoshlari orasida ham tahsinga loyiq, hech qanday ehson bermay kattadan-kichik, hammani shod qiladi, hech qanaqa hadya qilmay kishilarning g'amini tarqatadi.

Odob – kichik yoshlarni kattalar duosiga sazovor etadi, yoshlaruduo barakasidan umrbod bahramand bo'ladilar. Odob-ulug'lar ko'nglida yoshlarga mehr uyg'otadi va u odobli yoshga bo'lgan, muxabbat ko'ngilda abadiy qoladi. Yoshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l-atvori odobdir, odoblilarning yurish-turishlarida xalq ulug'vorlik ko'radi. Odob- kishilar tarafidan qilinishi mumkin bo'lgan hurmatsizlik eshigini bekitadi... Odob urug'ini ekkan odamning hosili javohir bo'ladi.

Alisher Navoiyning ma'naviyat va ma'rifat haqidagi ta'limotining umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan muxim jihatlaridan biri - farzandlar tomonidan ota-onalarni hurmat qilishlari haqidagi masaladir. U ota-ona xizmatini bajo keltirish, ulardan birini ikkinchisidan ortiq-kam bilmaslik farzandlar uchun saodat keltirishini alohida ta'kidlab, shunday deydi: "Tarbiyaning yana biri ota-onani hurmat qilish buni bajarish uning uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizimating qancha ortiq bo'lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyoing obod bo'lishini istasang, shu ikki odamning roziligini ol! Birisini oy deb bil, ikkinchisini - quyosh. Ularning so'zlaridagi tashqari bir narsa yozma, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam ham bosma. Hamma xizmatni sen adab bilak bajar, "adab" so'zidagi "dol" kabi qomatingni xam qil"¹.

Alisher Navoiyning ota-onang oldida jismu joningni sadaqa qilsang arziydi, ularning aytgan so'zlaridan, chizgak chiziqlaridan chiqma, degan o'gitlari o'zining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi.

¹ Alisher Navoiy. Hayratul-abror. Nasriy bayon qiluvchi A.Hayitmetov.-T.: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1974.-B.55.

Alisher Navoiy asarlarida mehnat va mehnatkash insonni ulug'lash yetakchi o'rin tutadi. Uning talqinicha, el-yurtning obod, xalqni to'q-farovon, insonni axloqan pok, jismonan baquvvat, ma'nan go'zal va barkamol qiladigan asosiy narsa bu mehnatdir.

Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida dehqonlarga jamiyatning asosiy moddiy boyliklarini yaratuvchi kuch deb qaraydi. Dehqon mehnatidan hamma tirik jon bahramand bo'lishi, u hammaga rizq beruvchi ekanligi haqida o'z fikrini quyidagicha ifodalaydi: "Don sochuvchi dehqon - yerni haydash bilan rizq yo'lini ochadi... Olamning obodligi dehqonlardan; mehnat ahli shodonligi ulardan. Dehqonlar qanday ekin ekishga qilsa harakat - elga ham oziq-ovqat yetkazur, ham barakat. Dehqonki, halol mehnat bilan don sochadi, haq bir donini yetti yuzga yetkazadi. Sochgan doni ko'kar guncha, uni o'rib, xirmon qilib hosil ko'targuncha qurt-qushlar undan bahramand, dasht vahshiylari uning bilan xursand. Chumolilar uyi undan shod... Kabutarlar mastligi-yu, to'rg'aylarning sho'x navosi shu donlardan. O'roqchining tirikchiligi shuning orqasidan, boshqochining ko'zi to'kligi shuning orqasidan. Qo'shchining undan murodi hosil, somonchi undan maqsadga vosil. Gadoylar u bilan to'q, xonadon esa ma'mur. Musofirga taom shundan, mujovirga kom undan. Novvoyning tandiri u bilan issiq, allof - unfurushning bozori u bilan qiziq. Fuqaroning rizq-ro'zi, g'ariblarning kuch-quvvati don bilandir. U bilan to'yib olgan obid qanoatligi haqida lof uradi. Don tufayli gadoy xaltasi burda nonga to'la. Shox xazinasi esa don orqasidan inju va oltinga boy. Dehqonning bir don sepganida shuncha hikmat bor, o'zga ishlarini ta'riflash maholdir"¹.

Alisher Navoiy ijtimoiy-siyosiy faoliyatida va badiiy ijodida oddiy mehnatkash xalq-manfatini himoyalab, zolim podsho va uning amaldorlarini xalqlar boshiga ofat toshini yog'duruvchi balolar deya qoraladi. Barcha xalqlarni o'zaro do'stlikka, hamjihatlikda yashashga chaqirdi. Shon-shuhrat orzusida yurgan shaxzodalarni Farhod va Iskandardan o'rnak olishga, ulardek kamtarin, insonparvar, dono bo'lishga da'vat qildi. El-yurt obodonchiligi va osoyishtaligi

¹ Alisher Navoiy "Mahbubul qulub". -T.: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1966.-B.36-37.

uchun imkoni boricha kurashdi. Xusayn Boyqarodek shohlarni adolatli va xalqlar hurmatiga sazovor bo'lgan davlat boshlig'i bo'lishga undadi.

Insonni sevgan va ulug'lagan shoir kelajakda ma'rifatparvar shox boshchiligida xalqlarning tenglikka, ozodlikka, tinchlikka erishishi uchun kurashdi. Alisher Navoiy va uning ustozlari ma'rifatparvar shoh g'oyasi doirasida cheklanib qolmasdan, uni yanada yuksakroqqa olib chiqdilar. Kelajakda insonlarning baxtli hayotga erishishlari - ular ijodida uziga xos ijtimoiy idealga aylandi.

O'z takdirini, hayotini oddiy mehnatkash xalq hayoti va taqdiri bilan chambarchas bog'lagan Alisher Navoiy kelajakda inson nomi ulug'lanadigan, qadrlanadigan "Baxtli jamiyat" or zusi asosida o'zining butun bir xayoliy, adolatli davlatini bunyod qiladi. Iskandar yer yuzidagi barcha mamlakatlarda adolat o'rnatadi. Jahon xalqlari zolim podsholardan qutulib, adolatsiz urushlardan holi bo'ladilar. Butun dunyoda adolatli, yagona tartib o'rnatiladi.

Navoiy xudo va borliqning birligini ta'kidlar ekan, xudoning boshlang'ichi va oxiri yo'q, u mutlaq ekanligini aytadi. Navoiy dunyoni, hayotni cheksiz ummonga o'xshatadi. Hazrat Navoiy bu dunyoga, hayotga nisbatan o'z muhabbatini quyidagi misralarda izhor etadi:

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,

Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

Har nekiki sevmak andin ortuq bo'lmas,

Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz¹

Zeroki, voqelikni, tabiatni idrok qilish Allohni bilishni anglatadi. Shuning uchun mutafakkir odamlarni tabiat sirlarini, voqea va hodisalarni o'rganishga da'vat etadi.

Butun mavjudotda "Yaratganning, Allohning ruhi" mujassamlangandir. Inson yer yuzida boshqa mavjudotlar bilan o'zaro aloqada yashasa-da, u boshqa tirik va notirik mavjudotlardan o'zining bilimi, aqli, fikr yuritishi bilan ajralib turadi. Insonning nabobat, hayvonot va minerallar dunyosidan afzalligi shundan

¹ Alisher Navoiy. "Xazoyinul maoniy". G'aroyib us-sig'ar. Asarlar. 1-tom. -t.: "Fan", 1998. -B.489.

iboratki, u ma'lum narsalarni noma'lumdan ajrata oladi, unga ongli harakat, nutq xos bo'lib, umumiylikni idrok qila oladi. U haqiqatni bilishi bilan hayvonlardan ajralib turadi:

Dedi nuqta pardozi oliy sifot
Ki: "Inson erur mudriki kulliyot
Eurur o'zga hayvon bu ishtin bari
Ki inson erur barchaning sarvari"
Dedi: "Bilmasa ulcha maqsad erur,
Ki maxfiydur o'zida ne sud erur"
Dedi: Ulcha bordur o'zida nihon,
Bilurdin fuzunroqdur ahli jahon.
Vale munga bilmishki, bilmaydurur,
Bu maqsad darkini qilmaydurur.
O'zi bilmasi anglag'on so'zu dard
Ani barcha maxluqdin qildi fard¹.

Darhaqiqat, Navoiy dunyoqarashida gnoseologiya, dunyoni bilish, borliq, jism va ashyolarni idrok qilish muhim o'rinni egallaydi.

Ma'lumki, tasavvufda, shu jumladan naqshbandiylik ta'limotida bilimlar zohiriy va botiniy, ya'ni ma'rifatga bo'linadi. Zohiriy yoki dunyoviy bilimlar inson sevgilari va aql yordamida amalga oshadi. Alloh vasliga etishish, haqiqatga erishish uchun bitta aql va idrokning o'zi kamlik qiladi. Buning uchun inson butun umr poklanishi, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni egallab borishi, xayrli ishlar bilan mashg'ul bo'lishi, qalbi va dili doimo Allohda bo'lishi va tinmay komillikka intilishi zarur. Lekin, ikkinchi tomondan, inson bu dunyoning sirru-asrorlarini bilmay, dunyoviy ilmlarni egallamay, yuksak xislatlarni kasb qilmay turib haqiqatga erisha olmaydi.

¹ Alisher Navoiy. "Saddi Iskandariy". Asarlar.10-tom. "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1978. –B.306-307.

Modomiki shunday ekan, inson dunyoni sezgilar va aql kuchi orqali voqelikni, tabiat sirlarini, olamda bo'layotgan murakkab jarayonlar va o'zgarishlarni uqib olishi kerak. Navoiy hid, ta'm, eshitish, ko'rish va sezish orqali atrofdagi narsalarni bilish mumkinligiga ishongan bo'lsa-da, ular yordamida murakkab narsalar va ularning mohiyatini to'la idrok qilishi mumkin emasligini aytadi. Inson sezgilar orqali zohiriy ashyolar va hodisalarni biladi, xolos:

*Buki seni xoliqi kavnu fasod,
Qilmadi hayvonu nabotu jamod.
Lutf bila ayladi inson seni,
Din yo'lida qildi musulmon seni.
Berdi ko'rar ko'zu eshitu qulog',
Aytur til, atrni anglar dimog'.
Andoq ilik dog'ini, tutgay taom,
Andoq ayoq dog'iki, qilg'ay xirom.
Yuz ne'mat qilmoq uchun shurbu aql,
Har birisiga yana bir ta'mu shakl¹.*

Inson aqli, fikr qilish qobiliyati, sezgilar bergan ma'lumotlarni tahlil qilib, bir xulosaga keladi. Navoiy fikricha, aql bilish jarayonida yuqoriroq bosqich bo'lib, narsa va hodisalarning mohiyatiga chuqurroq kirib boradi. Aql insonning bebaho boyligi, u Alloh tomonidan in'om etilgan qimmatli sovg'adir. Odam nimaiki ish bilan mashg'ul bo'lmasin, biror narsani idrok qilmasin-bularning hammasi aql tufayli, tafakkur orqali amalga oshadi. Lekin Navoiyning aytishicha, aql yordamida inson hamma narsalarning sirru asrorini, dunyodagi o'zgarishlarni, ularning mohiyatini chuqur idrok qila olmaydi. Bunga aql ojizlik qiladi. Zeroki inson bilimi, aqli chegaralangan. U haqiqatni to'la fahmlay olmaydi. Lekin, shunga qaramasdan, Navoiy aqidasi ko'ra, inson aql va fikr qilish yordamida jahonga hukmronlik qilaoladi:

Chu afloku anjumg'a etmas ilik,

¹ Alisher Navoiy. "Xayratul abror". Asarlar. 6-tom. –T.: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1965. –B.198.

*Ki mohiyati elga bo'lg'ay bilik.
Bilib biz hisobini bog'lab rasad,
Haqiqatlarin fahm qilmas xirad.
Akarg'aki qodir emastur kishi,
Bilinmas sukuni bila gardishi.
Jahonkim bo'lubtur musaxxar manga,
Anga hukmronliq muyassar manga¹.*

Tarixchi Xondamir Hazrat Navoiyning davlatni oqilona boshqarishda qatnashganligini, obodonchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lganligi va beva-bechoralarga yordam berganligi, ilm ahllariga homiylik qilganini yozar ekan, uning yuksak aql-zakovat egasi ekanligini alohida ta'kidlaydi. Xondamir aql va uning voqelikni bilishdagi o'rniga katta baho beradi:

*Aql yo'l ko'rsatuvchi va aql eshik ochuvchidir,
Aql har ikki dunyoda qo'llaguvchidir.
Aql podsholarning tojidir.
Aql atoqli kishilarning ziynatidir.
Har qanday kishining, agar aqli bo'lmasa,
Aqllilar uni hushyor sanamaydi.
Jahonda agar aql sarmoyasini topsang,
Ikki dunyoda bo'lursan shodmon.*

Haqiqatan bu nafis javhar har kimning miya maxzaniga kirsam, uning ko'ngil va ko'zlariga minglab ma'no xazinalarini ko'rsatadi va har kishining muborak dilida joy olsa, ulardan jaholat turkumi negizlarini qo'poradi².

Hazrat Navoiy aqlning bilish qobiliyatiga yuksak baho berar ekan, aql ijtimoiy hayotning hamma sohalari: siyosat, xulq-odob qoidalarini kasb qilish, shirinsuxanlik, ta'lim-tarbiya va boshqalarga tegishli ekanini ta'kidlaydi. Shuning uchun ul zot aqlli kishilardan ibrat olishga, ularning nasihatiga, garchi achchiq

¹ Alisher Navoiy. "Saddi Iskandariy". Asarlar.10-tom. -T.: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1978. -B.352.

² Xondamir. "Makorim ul-axloq". -T.: "Fan", 1967. -B.32.

bo'lsa ham quloq solishga, donolar va aziz avliyolarning o'g'itlari va hikmatli so'zlaridan bahramand bo'lishga da'vat etadi.

Navoiyning fikricha, aql yordamida koinotning sirru asrori, murakkab hodisalarni mohiyatiga eta oladi, yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farq qila oladi. Shuning uchun inson aql hukmi bilan ish tutishi, uni o'ziga yor qilishi darkor:

*Ko'nglunga xirad yo'lin padidor ayla,
Bu naqdqa joningni xaridor ayla,
Har ishda xirodni o'zunga yor ayla,
Jurmung tarkidin xirad izhor ayla¹.*

Inson doimo voqelikni bilishga, ilm egallashga intilishi lozim:

*Ey xiradmand olimeki, sanga
Ilmdin ro'ziy ayladi sone'.
Kishi o'rgansa, qilmag'il mahrum,
Yoki naf' olsa bo'lmag'il mone'².*

Navoiy va Jomiy dunyoqarashida, ularning diniy-irfoniy ta'limotlarida aql bilan ilm-fanning birligi, o'zaro bog'liqligi haqida fikrlar bayon qilingan.

Ma'lumki, tasavvuf vakillari dunyoviy va ilohiy ilmlarni bir-biridan ayri holda qaramaganlar. Ular ilm deganda dunyoviy, zohiriy va ilohiy, ya'ni ma'rifiy, botiniy ilmlarni tushunganlar. Dunyoviy ilmlarni bilmasdan turib, tabiatning sirru asrorini o'rganmay ilohiy bilimlarni tushunish, Haqiqatga etishish amri mahol. Navoiy va Jomiy naqshbandiylik ta'limotiga qat'iy rioya qilgani holda, inson bu dunyoda ilmlarni puxta egallashi zarur deb bilganlar.

Aql, ular nazarida, ilm-fanni haqiqat yo'liga boshlaydi, lekin o'z navbatida aql ilm-fansiz o'z jilosini yo'qotadi. Aql insonni to'g'ri yo'lga soladi, yaxshi xislatlarni egallashga, haqiqatni, ilm-fan sirlarini idrok qilishga yordam beradi. Xondamirning e'tirof etishicha, "aqlning dalolati bilan kunlarning aylanishidagi ish tajribalari va oy-yillarning gardishidagi hodisalarni tekshirish natijalari qo'lga

¹ Alisher Navoiy. "Nazmul Javohir". Asarlar 15-tom. -T.: "Fan", 1968.-B.19.

² Alisher Navoiy. Arbain. Asarlar. 15-tom.-T.: "Fan", 1968. -B.60.

kiritiladi”¹. Mutafakkir o'zining badiiy asarlarida yaratgan obrazlari, xususan, Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Shopur, Arastu, Aflotun va boshqalar ilmning ko'p sohalaridan xabardor, aqlli, adolatli, dono, jasur va shijoatli, insonparvar shaxs sifatida gavdalanadi. Masalan, Farhod yoshligidan turli bilim sohalarini egallaydi:

*Jahonda qolmadi ul etmagan ilm
Bilib tahqiinni kasb etmagan ilm.
Bo'lub o'n yoshqa umrining mururi,
Yigirma yoshcha qaddu jismi zo'ri
Ulum avroqi chun bir-bir yopildi
Dilovarliq silohi mayl qildi*².

Navoiy olimlarning ma'naviy qiyofasi, xulq-odobi haqida ham o'z fikrini aytib o'tadi. Ul zotni, eng avvalo, olimlarni jamiyatdagi o'rni, mamlakat kelajagi va farovonligi uchun mas'uliyati, o'zaro feodal urushlari va qarama-qarshiliklarni bartaraf qilishdagi sa'y-harakatlari qiziqtiradi. Haqiqiy olim oliyjanoblik, haqqoniylik, mehnatsevarlik, sabr-toqat, nafsni tiyish, javonmardlik kabi xislatlarga ega bo'lishi, bilimdon va g'amxo'r ustoz tanlashi, o'z bilimini boshqalar bilan baham ko'rishi lozim. Navoiy fikricha, olim kamtar, muloyim bo'lishi, qancha bilimi yuqori bo'lmasin, mag'rurlanmasligi, doimo ilm sirlarini egallashga o'z vaqtini sarflashi lozim. “Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim. Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur. O'rganishdan qochgan lavand va yuziga xiyla, bahona eshigini ochgan hushyoqmas ablah, mehnat qilib ilm o'rgangan esli hushli”³ – deb uqtiradi mutafakkir.

Navoiy, Jomiy va XV asrning boshqa mutafakkirlari inson, eng avvalo, solik va darvishlar boylik to'plashga ruju qo'ymasligi lozim deb hisoblaydilar.

¹ Xondamir. “Makorim ul-axloq”.-T.: “Fan”, 1967. –B.31.

² Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin”. Asarlar. 7-tom. -T.: “G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti”, 1978. –B. 40.

³ Alisher Navoiy. “Mahbub-ul qulub”. Asarlar, 13-tom. -T.: “G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti”, 1966. –B.232-233.

Shu munosabat bilan tasavvufda boylik to'plamaslik, molu dunyoga berilmaslik to'g'risidagi fikrga biroz aniqlik kiritish kerak bo'ladi. Ma'lumki, tasavvufda soliklar faqrlikni, kambag'allikni ixtiyor etishlari, butun fikru-zikrini poklanishga, qalbida Allohni esdan chiqarmaslikka, haqiqatga intilishga harakat qilishi lozim, degan fikr ilgari suriladi.

Darhaqiqat, naqshbandiylik ta'limotida solik boylik egasi bo'lishi mumkin, lekin u qalbida Allohni yoddan chiqarmasligi lozim, degan fikr mavjud.

O'sha davrning mashhur mutasavviflari Abdurahmon Jomiy, Xoja Ahror hamda Alisher Navoiy va boshqalar katta boylik va mulk egalari bo'lganligi tarixdan ma'lum. Lekin ular Naqshbandiylik tariqati qoidalariga to'la amal qildilar. Ular boyligini katta qismini xalq farovonligi yo'lida sarf qildilar, beva-bechora va muhtojlarga yordam qildilar, hatto og'ir ahvolda qolgan viloyatlarni mablag' va g'alla bilan ta'minlab turdilar. Ayniqsa, Hazrat Navoiyning bu boradagi xayrli ishlari ibratlidir. Ul zot o'z mablag'i hisobidan ko'priklar, hammom va shifoxonalar, rabot va karvonsaroylar, maktab, masjid va madrasalar suv inshootlari qurirdi, kanallar o'tkazdi. Bulardan tashqari, shoir ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida ham shuhrat qozondi. Navoiy qiynalib qolgan madrasa talabalari, yosh iqtidorli shoirlar, rassomlar va olimlarni moddiy jihatdan qo'llab turganligi manbalardan ma'lum.

Demak, boylik egasi bo'lish solikning bu dunyodagi ishlari sirasiga, zohiriy faoliyatiga kiradi. Agar u qalbida Allohni esdan chiqarmay, ma'rifat bilan shug'ullansa, boylik Xudoning vasliga etishishi uchun xalaqit bermasa, u holda boylik to'plash qoralanmaydi.

Navoiyshunos Sultonmurod Olim Hazrat Navoiy asarlarini tahlil qilib, ulzot mol-mulk egasi bo'lish solik uchun ayb emasligi, aksincha, xudo vasliga etishishda muhim omil bo'lsa, zararyetkazmaydi, degan fikrini keltiradi. "Demak, deb xulosa qiladi Sultonmurod Olim, - so'fiy zohiran boylikka ega bo'lgani bilan botinan-qalban o'zini hamisha faqr holatida sezishi kerak. Hamma gap ana shu dunyo boyliklariga ko'ngil qo'ymaslikda, bandaning har lahza Tangri oldida behad

kambag'al-ojiz ekanligini tan olishda, yana ham muhimrog'i-ana shu boyliklarning qanday yo'l bilan, halol mehnat ketidanmi yo tekinmi yoxud qonuniymi yo g'ayriqonuniy yo'llar bilanmi topilganida"¹.

Alisher Navoiy ilm haqida fikr yuritar ekan agar podshoh bilimdon, aqlli bo'lsa, ilmning qadriga etsa, ul zot boshqargan mamlakatda olimlar ko'payadi, ilm-fan ravnaq topadi, pirovard natijada bu mamlakatni yuksalishiga olib keladi, degan fikr yotadi.

Navoiy dunyoqarashining e'tiborga molik tomonlaridan yana biri ilmning amaliy ahamiyati va jamiyat uchun foydasi to'g'risidagi fikridir. Ilmdan maqsad xalqning turmushi, ma'naviyati va xulq-odobini yaxshilashdir. Shuning uchun olim, eng avvalo, jamiyatga nafi tegadigan ilm bilan mashg'ul bo'lishi lozimligini uqtiradi.

Alisher Navoiy "Mahbubul qulub" risolasida ilmni o'rganib unga amal qilmagan kishilarni qoralaydi, ularni "urug' sohib hosil ololmagan" dehqonga o'xshatadi. Boshqa bir joyda esa fosiq olim bilan davlatmand baxilni bir-biriga qiyoslab, "bu ikki kishi umrni bekorga o'tkazdi va go'rga hasrat va armon olib ketdi. Biri buki, ilm o'rganishga mashaqqat chekti-amal qilmadi, biri buki, mol yig'ishga mehnat qildi, sarf qilishni bilmadi",² – deydi. Hazrat Navoiyning fikricha, olim o'z bilimini turmushga qo'llay olmasa, uning butun harakatlari zoye ketadi.

Shoir o'z asarlarida fanning turli sohalari va ularning yirik namoyandalariga o'z munosabatini bildiradi. Masalan, ul zot Ulug'bekning falakiyot ilmi sohasidagi kashfiyotlarini yuksak qadrlaydi:

*Temurxon naslidan sulton Ulug'bek,
Ki olam ko'rmadi sulton aningdek.
Aning abnoyi jinsi bo'ldi barbod,
Ki davr ahli biridin aylamas yod.
Va lek ul ilm sori topti chun dast,*

¹ Sultonmurod Olim. "Naqshband va Navoiy". -T.: "Fan", 1996.-B.94.

² Alisher Navoiy. "Mahbubul qulub". Asarlar. 13-tom. -T.: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1966. –B.222.

*Ko'zi olinda bo'ldi osmon past.
Rasadkim bog'lamish-zebi jahondur
Jahon ichra yana bir osmondur.
Bilib bu nav' ilmi osmoniy,
Ki andin yozdi "Zichi Ko'ragoniy".
Qiyomatg'a dekincha ahli ayyom
Yozarlar oning ahkomidin ahkom¹.*

Alloma, bulardan tashqari, ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati, ularni inson ma'naviyati, axloqiy va tarbiyaviy kamolotida tutgan o'rni haqida ham so'z yuritdi. Navoiy tarix fanini o'rganishning afzalligi haqida fikr qilib, u dunyoda ne-ne saltanat va podshohliklar o'tganini, davlat boshliqlarining ba'zilar xalqqa zulm qilganliklari, boshqalari esa xayrli va adolat ishlari bilan dong taratgani, mamlakatlarning obod bo'lishi yoki inqirozga yuz tutishi haqida xabar berishini aytadi.

Navoiy o'z asarlarida bilimsizlik, aqlsizlik va jaholatparastlik, nodonlikni qattiq qoralaydi. Shoirning o'ylashicha, ayniqsa, johil davlat boshliqlari mamlakatga katta ziyon keltirishi mumkin. Buning natijasida shahar qishloqlar xarob bo'ladi, jamiyatda qarama-qarshilik, fisqu fasod, adolatsizlik, o'zboshimchalik ko'payadi. Navoiy nodon va johillardan uzoqda yurishga, ularga yaqinlashmaslikka da'vat etadi. "Ishi g'urur va takabbur, xayolida yuz buzuq tasavvur, har bir mujmal ishi o'ziga ma'qul, barcha jirkanch qilig'i o'ziga maqbul, ko'nglida kishilarga yuz ozor, xayoli va joxilligidan xalqqa ming zarar ehtimoli"².

Alisher Navoiy Uyg'onish davrining boshqa mutafakkirlari singari insonni yuksaklikka ko'tardi, asarlarida odamiylikni, eng yaxshi fazilatlarini kuyladi. Allomaning barcha asarlarining markazida inson shaxsi turadi. Uning talqinida inson Xudo tomonidan yaratilgan bo'lib, butun tirik mavjudotlar ichida eng yuksagi hisoblanadi. U o'zining fikrlash qobiliyati, nutqi va ongli hatti-harakati bilan ajralib turadi.

¹ Alisher Navoiy. "Farhod va Shirin". 7-tom. -T.: "Fan", 1968. -B. 404.

² Alisher Navoiy. "Mahbubul qulub". Asarlar. 13-tom. -T.: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1966. -B.226-227.

Dedi nukta pardozi oliy sifat

Ki “inson erur mudriki kulliyot.

Erur o'zga hayvon bu ishtin bari,

Ki inson erur barchaning sarvari”¹.

Mutafakkir haqiqiy insonparvar shoir edi. Zero,ki, u butun umr odamiylikni kuyladi, insonning g'am-tashvishlari, orzu umidlari, baxt-saodatini tasvirladi, insonlarga yaxshilik qilish, mehr-shafqat va muruvvat ko'rsatish, beva-bechora va muhtojlarga yordam berish, komil insonni tarbiyalash haqida so'z yuritdi. Uningcha,xalq to'g'risida qayg'urmaydigan, unga yordam bermaydigan, g'amiga sherik bo'lmaydigan, jamiyatga naf keltirmaydigan odamlarni aslo inson qatoriga qo'shib bo'lmaydi.

Odamiy ersang demagil odami,

Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami².

Biz uning mu'tabar nomi ijodiy merosining boqiyiligi, badiiy daxosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi xakida doimo faxrlanib so'z yuritomiz. Inson terak ifoda etgan shoir jaxon adabiyoti tarixida kamidan kam topiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har jihatdan yetuk barkamol insonlarni tarbiyalab etishtirish mustaqil O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan, hozirgi davrda millat quyoshi Alisher Navoiyning nafaqat davlatchilik, balki komil inson hayotidagi qarashlari o'z aksini topgan serqirra ijodini o'qish va o'rganish, yoshlar ma'naviyatini o'stirish, adabiyot to'g'risidagi qarashlarini kengaytirishiga xizmat qiladi.

¹ Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin”. 7-tom. -T.: “G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1978. – B. 404.

² Alisher Navoiy. “Xayratul abror”. Asarlar. 6-tom. –T.:“G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1965. –B.155.

2.2. Alisher Navoiy adabiy merosining yosh avlod tarbiyasiga tutgan o'рни.

O'zbek xalqida insonparvarlik, mehr-oqibat, kattaga hurmat, kichikka izzatda bo'lish, to'g'ri so'z va birovning haqqiga xiyonat qilmaslik azaldan vujudimizga singdirilib kelingan. Bu g'oyalarning shakllanish tarixini va ma'naviy dunyosining rivojlanishini kuchli va samarali yoritish bilan bir qatorda, xalqimizning ma'naviy-ruxiy olamini yuksaltirishda Alisher Navoiy bobomizning xizmatlari beqiyosdir. Bu ulug' zotning boy va umrboqiy merosi tugamas bir buloqdir. Bu buloq insoniyatni hozirgi kunda ham ma'naviyat va ma'rifat bilan sug'ormoqda. Bu buloqdan chanqog'ini qondirgan kishi ilm-ma'rifatli, dinu-diyonatli bo'lishi shak-shubhasiz.

Alisher Navoiy asarlarining gultoji hisoblanmish, "Xamsa" jahon adabiyotining o'lmas obidalaridan biri bo'lib, xamsachilik an'analarida yanada yangi va ulkan bir hodisa bo'lib qoldi. Binobarin, ko'plab shoirlar xamsa yaratgan bo'lsalar ham, ko'pchiligi Nizomiy bilan ijodiy olishuvga bardosh berolmadi. Faqat uch shoir: forsiygo'y, ulug' hind shoiri Xusrav Dehlaviy, ulug' tojik shoiri va mutafakkiri Abdurahmon Jomiy va Navoiygina Nizomiy qatoridan o'rin olishga musharraf bo'ldilar. Alisher Navoiy ikki yildan bir oz ziyodroq vaqtda "Xamsa" ni yozib tugatadi. U jahon adabiyoti xazinasiga g'oyaviy-badiiy yuksak obida armug'on qildi, o'zi ta'kidlaganidek, Firdavsiy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy va Jomiy kabi ulug' mutafakkirlar qatoridan faxrli o'rin oldi. Navoiyning Xamsa dostonida jamlangan barcha hikoya va qissalarida ham insonparvarlik g'oyalari nechog'lik teran yoritilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Inson ko'nglini qayta kashf etish "Xamsa" janrining asoschisi bo'lgan Nizomiy Ganjaviyda "sir" fenomeni vositasida bajariladi. Ustozlar izidan borib, xamsachilikni yangi bosqichga ko'tara olgan Alisher Navoiy esa "Xamsa" ning tarixini "hayrat" talqiniga bag'ishlangan bo'limlarida ayni istiloh mohiyatini "avvalgi" va "o'rta" olamlar xronotopi sintezi asosida yoritadi.¹

¹ Uzoq Jo'raqulov „Hayrat haqiqati“ Ma'naviy hayot jurnali № 1 2018

Navoiy asarlarining g'oyaviy tarbiyada tutgan muhim o'rni uning komil insonni, bugungi kun nuqtai nazari bilan aytganda, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyati bilan belgilanadi. Ularda Vatan va vatanparvarlik, qahramonlik, mardlik, matonat, bag'rikenglik, insoniylik, insonparvarlik, mehr va muhabbat, milliy-ma'naviy qadriyatlar ardog'i mutlaqo takrorlanmas qirralari bilan namoyon bo'ladi. Alisher Navoiyning o'z hayot yo'li, insonparvarlik faoliyati, ilg'or qarashlari, bajargan ezgu amallari, eng avvalo uning o'zi bizga na'munadir.

Alisher Navoiy saroyda yuqori amalda faoliyat yuritgan vaqtlarida ham xalqning og'irini yengil qilish dardi bilan yashagan. El-ulus manfaati, shahar va mamlakat obodonchiligi, madaniyat ravnaqi, adolat tantanasi uchun xizmat qilgan. Tarixchi Xondamirning yozishicha, Navoiy dehqonchilik ishlarini yo'lga qo'yib, juda yaxshi natijalarga erishgan. O'z mablag'i hisobidan 52 rabot, 20 hovuz, 16 ko'prik, bir qancha to'g'on, ariq, hammom, masjid-madrasalarni qurdirgan. Navoiy turli soha olimlariga homiylik qilib, o'nlab ilmiy risolalar bitilishiga bevosita sababchi bo'lgan. Bu qilingan ishlarning zamirida, insonparvarlik, xalqning farovon turmush kechirishi, insoniylik fazilatlarini yotganligi barchamizga ma'lum¹.

Agar masalaga insonning ruhiy ehtiyojlari, insoniyatning ma'naviy takomili, millat taraqqiyoti manfaatlari nuqtai nazaridan qaralsa, Navoiyni o'qish zaruriyati chandon ortganligini ko'rish mumkin. Bu zaruriyat, eng avvalo, Alisher Navoiy shaxsi va ijodida abadiy insoniy ideallarning tajassum topganligi bilan izohlanadi. U tafakkur tadrijini shunday bir cho'qqiga ko'tarib qo'ydi, bu cho'qqi vaqt bilan basma-bas tobora yuksalmoqda — bashariyat bu cho'qqining poyiga yetishi uchun hali necha-necha asrlar yo'l bosishi lozim bo'ladi.

Alisher Navoiy asarlari ulkan falsafiy, ijtimoiy, tasavvufiy mazmunidan tashqari, eng avvalo, insoniy tuyg'ularni ilohiy so'z san'atkorligida ifoda etganligi bilan har qanday kitobxon qalbiga yaqindir.

Ey ko'ngil, dushmanlar oncha makr ila fan qildilar

Kim, vafolig' do'stni jonimga dushman qildilar, -

¹<http://ma'naviyat.uz/> Alisher Navoiy asarlari — ma'naviyat bulog'i.

deb yozadi shoir bir g'azalida. Unda g'oyatda samimiylik, ayni paytda, nihoyasiz dardu hasrat bilan ifoda etilgan holat qaysi birimizga begona ekan?! Qaysi birimiz umrimizning muayyan lahzalarida koinot gultoji sanalmish Odam Ato farzandlarining ezgulikdan ko'ra yovuzlikka ustaroqligidan - ig'vo, hasad, fisqu fujur, manfaatparastlik, g'iybat, chaqimchilik, ikkiyuzlamachilik, soxtakorlik, yolg'onni san'at darajasiga ko'tarib, "vafolig' do'st"larni jon dushmanimizga aylantirganliklaridan aziyat chekmaganmiz?! Shunday fursatlarda qaysi birimiz bolalarcha sharhi holga, bolalarcha tasalli va panohga muhtojlik sezmadik ekan?!

Aylamang bekasligimni ta'n bir kun, bor edi

Menga ham bir nozanin chobuksuvor, ey do'stlar, -

o'qiymiz yana bir g'azalida. Alisher Navoiy ijodiga yaqinlashishga hayiqibroq turgan har qanday kitobxon favqulodda samimiy izhori dil, hasrat, iltijodan larzaga tushmasligi mumkin emas. Ana shunday misralarda shoir qalbi -bizga ko'p hollarda oliyshon poetik an'analarga, mislsiz ulkan shaxsning ijtimoiy dardlariga, so'zning beqiyos jilvalariga ko'milib yotgandek tuyuladigan oddiy insoniy qalb yarq etib ko'zga tashlanadi. Ulug' shoir she'riyatiga ana shunday oddiy insoniy tuyg'ular halqasi ila bog'langach, uning bepoyon fikrlar olamiga, ramzlar dunyosiga qadam tashlash oson kechadi¹.

"Odamiy ersang, demagil odami, Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami", ya'ni xalq g'amidan g'am chekmagan odamni inson hisoblama, degan dasturni o'rta tashlagan adib shaxs va omma manfaati o'zaro bog'langan shunday nozik halqani ko'rsatadiki, unda xalq manfaati yo'lida yugurib-yelib yuribman, deb yolg'ondan ko'ksiga urganlarga ham, nuqul o'z manfaatini o'ylab kunj-kovaklarda pisib yurganlarga ham istehzo va saboq bor.

Shoir ijodiy merosi sahifalari odamiylik fanining izchil darslaridir. "Yaxshilik tuxmini sochqilkim, budur dehqoncha so'z: "Har nekim ekting bugun, yorin (ertaga) hamon tut ani ko'z!", "Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig', Yor o'ling bir-biringizgakim, erur yorlig' ish!" deyдилar Hazrat yana.

¹<http://ma'naviyat.uz/> Insoniyat barhayot ekan, bu ehtiyoj mavjuddir.

Inson o'z-o'zini tanish, komillik sari nechog'lik intilmasin, dunyo hanuz jaholat, fitna, adovat, qanoatsizlik dastida talosh bo'layotgan, qaysidir davralarda hanuz tuhmat, chaqimchilik, riyo, yolg'on rag'batlantirilayotgan bugungi kunda bu dastur qanchalik muhim! Shoir ijodi yaratuvchilikka da'vat, ezgulikka rag'bat, insoniylikka chaqiriq motivlari bilan yo'g'rilgan bunday baytlarga naqadar boy! Faqat bu asarlarni kundalik turmush poygalaridan bir qadar tin olib, o'tkinchi dunyo hoyu havaslaridan chekinib qo'lga olmoq, ko'ngil ko'zi bilan o'qimoq lozim bo'ladi. Shunda ko'ngil dalamizning naqadar kengayib ketganligini, unda xushifor yellar esayotganligini, ruhimiz yengillashib, o'z asl maskani sari parvoz etayotganligini sezamiz...

Navoiy mansabdorning ma'naviy tubanlashishi qanday yomon oqibatlariga olib kelishi mumkinligi haqida quyidagi hikmatli fikrlarni aytgan: "Inson mansab va kattalikni sevishi tabiiydir. Bu ishda nafs ixtiyorsiz va kishining sezgisini egallash bilan shug'ullanishini talab qiladi; mansabning xosiyati g'aflatni orttiruvchi va podshohlikning mast qiluvchi iltifoti xush oluvchi va shunday kishiga xalqning ishi ko'p tushadi.

Bunday kishining xushyor bo'lishi juda og'ir. Agar u goho aql madadi bilan o'zini tuta olsa-da, biroq mansab mastligi uni holiga qo'ymaydi. Haqiqatdan shu mastlik chog'ida, falakning intiqom oluvchiligi, g'addorligi va falak Holiqning adolatli hokim ekanligi qachon uning xotiriga keladi? Orttilgan qudrat va martabaning bahosi yo'q va umr foydasizdir. Uning yomonliklaridan faqat dushmanlargina kulib qo'ya qolmay, rasvoligidan do'stlari ham sharmandadir... Xulosa: nafs pok va aqli sof kimsa bu mastliklardan o'zini bexush qilmasin va o'zini o'zbilarmonlik va o'zboshimchalikka solmasin. Zulm ko'rgan dardmandlarning holiga boqsin"¹.

Hukmdorlarning xalq bilan munosabatiga asos bo'ladigan ma'naviy omillar, odob qoidalari ustida to'xtab quyidagi fikrlarni aytgan:

"Kuchsizlar va bo'ysunuvchilarga shafqat va mehribonlik ko'rsatsinlar. Yomon holga tushgan va tuban kimsalarning ishlarini marhamat va yumshoq

¹ Xondamir. "Makorimul-ahloq". -T.: "O'zFA nashriyoti", 1948. -B.40.

so'zlar bilan to'g'rilasinlar. Qattiq so'zlar bilan darveshlarning dillarini ranjitmasinlar. Dili yaralarning jarohatiga muloyim so'zlar bilan malham bo'lsinlar. Nafs va shayton firibidan xotirjam o'tirmasinlar, har bir ishda ixlos va rostlikni kasb etsinlar. Podsho davlati, xalq va sipoh ishlarini tuzatish borasidagi to'g'ri so'zdan qo'rqmasinlar va aytaversinlar.

Xudoy saqlasin, g'ururlik mayi bilan o'zini mast va behush qilmasinlar. Boshga biror mashaqqat ish tushsa, sabr va chidam panohiga sig'insinlar. Yoshlarga shafqat, tengqurlarga muvaffaqiyat va madora, kattalarga izzat va hurmat ko'rsatish yo'llariga rioya qilsinlar"¹.

Navoiyning mazkur fikrlarida har bir inson faoliyatiga asos bo'ladigan mukammal ma'naviy qadriyatlar tizimi bayon etilgandir. Alisher Navoiy odamlarni insofga, sahovatli va adolatli bo'lishga, bir-birlari bilan ahil bo'lishga, bir-birlariga yordam berishga, karamli, sahiy bo'lishga chaqiradi. Sahiylik inson ma'naviyatining asosiy mezonlaridan biri ekanini, uning mohiyati va ahamiyatini tavsiflab quyidagilarni aytgan edi: "Sahiylik kishilar bog'ining hosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik o'lkasining to'lqinli daryosi, balki u to'lqinli daryoning asl gavharidir". Xondamir Alisher Navoiyning yuksak ahloqiy fazilatlarini jumlasiga kamtarlik, hokisorlik, xayr-ehsonlilik,, kambag'alparvarlik, to'g'rilik, odillik, adolatlilik, ma'rifat sohiblariga homiylik qilish, do'stlikni qadrlash, molu dunyoga, boylikka berilmaslik, oqko'ngillilik, gina va adovat saqlamaslik, kechirimlilik, vaziyatni hisobga olib ish tutish, shirin so'zlilik, xalqparvarlik, imonlilik, insoflilik, jabr-zulm ko'rganlarni himoya qilish, nafs balosiga berilmaslik, rostgo'ylik va boshqalarni kiritgan. Navoiyning o'z faoliyati davomida millat va davlat manfaatlariga keltirgan beminnat foydasi haqida shunday yozadi: "Amirlik taxtini, hukumat mansabini o'zining muborak qadamlari bilan ziynatladi va jabrjafo raqamlarini davron sahifasidan mahv qilib, adolat va insof eshiklarini insoniyat yuziga ochib qo'ydi. Yaralangan davr

¹ Xondamir. "Makorimul-ahloq". –T.: "O'zFA nashriyoti", 1948. –B.41.

jarohatlariga malham qo'yib, hur olam dahri kasallariga adolat sharbati bilan shifo baxsh etdi"¹.

O'zbek xalqining buyuk mutafakkiri Alisher Navoiyning ilmiy-falsafiy merosi va ijodiyoti, ma'naviyat va ma'rifat haqidagi g'oyatda sermazmun va ko'p qirrali ta'limoti endilik-da butun taraqqiyparvar insoniyatning boyligi bo'lib qoldi. Uning o'lmas asarlarida o'zining chuqur ilmiy ifodasini topgan xalq va Vatan, inson va uning baxt-saodati, tinchligi va osudaligi haqidagi qimmatli g'oyalari va ta'limoti umuminso-niyatni ma'naviyat va ma'rifatga, ezgulik va hidoyatga da'vat etmoqda, zulm-zo'ravonlikdan, nodonlik va jaxolatdan xalos bo'lishga, ijtimoiy adolat tantanasi uchun kurashishga chorlamokda.

Buyuk mutafakkir bobomiz qariyb olti yuz yil narida turib bo'lsa-da, nafaqat o'z xalqining, balki banibashariyatning xam ma'naviy olamini boyitishda bevosita ishtirok etmoqda, ruhiy madadkor bo'lib turibdi. Kurrai zaminda uning asarlaridan bahramand bo'lmagan, ilg'or g'oyalari va ta'limotidan ruhiy quvvat olmayotgan, ijodiy foydalanmayotgan mamlakat, xalq va millat yo'q, deb bemalol aytish mumkin. Alisher Navoiy asarlari jamiki odamizotga mehnat va halollikdan, do'stlik va xamkorlikdan, rostgo'ylik, soflik va samimiylilikdan muhim hayotiy saboq bermoqda. Buning ustiga haromxo'rlik va alolatsizlikni, fitna-fujur, o'zaro nizo va qonli to'qnashuvlarni, vayronagarchiliklarga sabab bo'ladigan urushlarni esa keskin qoralamoqda. Ana shu ma'noda olganda, Alisher Navoiy ta'limoti faqat milliy ahamiyatga ega bo'lib qolmasdan, umumbashariy qimmatga xam egadir. Navoiy umuminsoniyatga xos bo'lgan daholardan biridir.

Navoiy orzulari O'zbekiston davlat mustaqilligi sharoitida ro'yobga chiqdi. Mustaqillik - uning tarixiy-ilmiy qadriyatlarini, asarlarini, yaratgan ta'limotlarini yuksak darajada ardoqlaydigan yangi tarixiy davrdir. Bu davrga kelib Navoiy hazratlari asarlariga tamomila boshqacha mehr-muhabbat, hurmat-ehtirom bilan qaraladigan bo'ldi. O'zbek xalqining har bir farzandi, respublikamiz fuqarolari uning asarlarini sevib o'qib-o'rganmoqda, ulardan ta'lim-tarbiya olmoqda.

¹ Xondamir. "Makorimul-ahloq". -T.: "O'zFA nashriyoti", 1948. -B.41.

O'zbekistonda Navoiy bobomiz nomiga atab shaharlar barpo etildi. Qanchadan-qancha institut va universitetlar, kutubxonalar, ko'chalar, xiyobonlar, maktablar, teatrlar, korxonalar va muassasalar buyuk mutafakkirning muborak nomlari bilan atalib kelinmoqda. Yurtimmda, mintaqamizda to'ylari keng nishonlandi. 1991 yil - Alisher Navoiy yili deb e'lon qilindi. Poytaxtimiz Toshkentda ulkan milliy xalq bog' va mahobatli haykal ochildi.

Xullas, milliy istiqlol bizni o'z tariximiz, milliy qadriyatlarimizga sog'lom ko'z bilan qarashga o'rgatdi. Ana shunday qarash tufayli Navoiyga, uning asarlariga bo'lgan munosabat o'zgardi. Uning ijodiy merosi cheklash va qisqartirishlarsiz kitobxonlarga taqdim etildi, shoir asarlarining yangi-yangi talqinlari maydonga keldi. Navoiyxonlik, navoiyshunoslikning yangi bir davri boshlandi. Bu yangi davr ulug' bobomiz qoldirgan fikr va so'z injulariga ehtiyojning chandon ortganligi bilan ham xarakterlanadi.

Xulosa

Har bir zamon, har bir tarixiy davr o'zining ulug' siymolarini yaratgan va yaratadi. Buyuk mutaffakirlarning tarix sahnasida paydo bo'lishi, o'zidagi qobiliyat va iste'dodni to'la-tukis ro'yobga chiqaraolishi uchun qulay madaniy-ma'naviy, g'oyaviy-siyosiy zamin, obyektiv shart-sharoit va subyektiv omillar bo'lishi kerak. Ana shunday qulay sharoit va imkoniyatlar mavjudligi tufayli Markaziy Osiyo, IX-XII asrlarda bo'lganidek, XIV-XV asrlarda ham bir qancha buyuk olimlar, nomi dunyoga mashhur ulug' shoir va mutaffakirlarni yetishtirdi. Alisher Navoiy ana shunday buyuk siymolardan bo'lib hisoblanadi.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri badiiy madaniyati tarixida butun bir davlatni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafigi dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir¹. Ulug' mutafakkir, so'z mulkingning sultoni Alisher Navoiyning boy ma'naviy merosi asrlar osha butun bashariyatni hayratga solib, insonlar qalbiga, ongu shuuriga ezgulik, insonparvarlik, saxovat, mehr-muruvvat ziyosini taratib kelmoqda. Bugun mamlakatimizda ulug' bobokalonimizga ehtirom ko'rsatish, asarlarini o'rganish, uni dunyoda keng targ'ib etishga doimiy e'tibor qaratilmoqda.

Mustaqillik buyuk mutafakkir hayoti va ijodini jumladan, uning tarixiy, ma'naviyat-ma'rifatga oid merosini o'rganishda yangi ufq ochdi. Jahondagi barcha xalqlarga ham Navoiydek buyuk daho nasib etavermagan. Bu ulug' zotga millatdosh bo'lganligimiz bilan chin dildan faxrlanamiz va bu endi bizga shunga munosib bo'lish mas'uliyatining ham yuklash aniq. Tadbir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biror-bir inson yo'qki, u Navoiyni sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. Aytish lozimki, inson qalbining quvonch-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi.

Jamiyatimiz yoshlarini barkamol avlod qilib voyaga yetkazishda, uning mazmun-mohiyatini idrok qilishda Alisher Navoiy asarlarining g'oyaviy tarbiyada

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-T.: "Ma'naviyat", 2008.-B.47.

tutgan o'zni muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Navoiy asarlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, alloma barkamol avlodning kelajagini ifoda etuvchi komil inson deganda, vatanparvarlik, millatparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik, bag'rikenglik, javonmardlik, mehnatsevarlik, shirinsuxanlik, vafodorlik, sabrlilik kabi insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etgan odil, dono, mard, fidoiy, oliyhimmat insonni tushungan.

Bugungi barkamol avlod tarbiyasi borasidagi zamonaviy ta'limotlarning ildizi bo'lmish komil inson g'oyasi o'rta asrlarda nafaqat ta'lim - tarbiyada, kishilarni kamolot sari yetaklashda, balki mamlakatlar taraqqiyoti va xalqlar ma'naviyatining yuksalishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ulug' allomaning barkamollik borasidagi ta'limotlari va bayon qilingan boqiy asarlari keyingi davrlarda Movarounnahr va Xuroson xalqini insonparvarlashtirishda, ularning turmush tarzi va ongiga umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda katta xizmat qilib keldi.

Alisher Navoiy asarlari, o'lmas dostonlari, g'azal va ruboiylarida barkamol shaxsga va komil insonga oid qarashlarni, qimmatli ta'limotlarni bayon qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki o'zi buyuk insonparvar shoir degan nom qozondi, insoniylikda boshqalarga o'rnak bo'ldi. U doimo oddiy xalq g'am-tashvishiga sherik bo'ldi, ularga homiylik qildi. Ushbu holatlar Alisher Navoiyning barkamol avlod tarbiyasi va komil inson haqidagi ta'limotlariga amaliy jihatdan yondashganligini ko'rsatadi. Barkamol avlodni tarbiyalash va komil inson masalasi bugungi kunda milliy mafkuramizning ustuvor g'oyasi va tamoyili bo'lib, u mustabid tuzum mafkurasidan xalos bo'lishda, milliy o'zlikni anglash va jamiyatni ham huquqiy, ham ma'naviy, ham siyosiy jihatdan modernizatsiya qilishda va ijtimoiy hayotda adolatparvarlik va tenglikni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur bitiruv ishi yakunda quyidagi tavsiyalarni keltirishimiz mumkin:

➤ Navoiy asarlarining tili murakkabligini, yoshlarga tushuntirishda qiyinchiliklar tug'dirishini hisobga olib, ularga izohli-ommabop lug'atlar, sharhlar bitish lozim;

➤ Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" asarlari asosida sahna asarlari, kinofilmlar tasvirga olingan, boshqa dostonlari asosida ham kinofilmlar su'ratga olinsa Navoiyni o'rganish, tushunish yanada osonlashar edi.

➤ Talaba-yoshlar ongiga milliy g'oya va uning ildizlarini singdirish maqsadida Alisher Navoiyning komil inson tarbiyasi to'g'risidagi g'oyalari bo'yicha Oliy o'quv yurtlarida maxsus kurslar tashkil qilinsa, uslubiy qo'llanmalar yaratilsa, ayni muddao bo'lar edi.

➤ Navoiy asarlarini jahon tillariga tarjima qilish masalasi. Bu bevosita xalqimizni iftihori bo'lishi bilan birga, uni keng olamga yoyish orqali vatanimiz shuhratini, tilimiz mavqeini mustahkamlaydi.

U tafakkur tadrijini shunday bir cho'qqiga ko'tarib qo'ydi, bu cho'qqi vaqt bilan basma-bas tobora yuksalmoqda - bashariyat bu cho'qqining poyiga yetishi uchun hali necha-necha asrlar yo'l bosishi lozim bo'ladi. Alisher Navoiy asarlari ulkan falsafiy, ijtimoiy, tasavvufiy mazmunidan tashqari, eng avvalo, insoniy tuyg'ularni ilohiy so'z san'atkorligida ifoda etganligi bilan har qanday o'quvchi qalbiga yaqindir.

Alisher Navoiy ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy-huquqiy g'oyalari, o'tmish ajdodlarimizning siyosiy faoliyati va ta'limotlariga asoslangan milliy davlatchiligimiz ildizlari huquqiy demokratik davlat qurishning o'zbek andozasi va milliy istiqlol mafkurasiga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Me'yoriy-huquqiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2018.
2. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2017 yil, 7-fevral.
3. 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018 yil, 06/18/5308/0610-son.
4. “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, № PQ-3160, 28 iyul 2017 yil.
5. “Alisher Navoiy tavalludining 560 yilligini nishonlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 2001 yil 2 fevral.
6. “Afg'oniston O'tish Islom davlatining Hirot shahrida Alisher Navoiy maqbarasini qurish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 2003 yil 27 avgust.
7. “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 2016 yil 13 may.
8. “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat Dasturi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 2018-yil 27-iyun.

II. Rahabariy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. //Xalq so'zi, 16 iyul, 2017 yil.

2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. //Xalq so’zi, 1 iyul, 2017 yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O’zbekiston”, 2016.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak.– T.: “O’zbekiston”, 2017. –B.104.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.: “O’zbekiston”, 2017. – B.48.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.– T.: “O’zbekiston”, 2017. – B.488.
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz.– T.: “O’zbekiston”, 2017. –B.592.
8. KarimovI.A. O’zbekiston: milliyistiqloq, iqtisod, siyosatmafkura. – T.: “O’zbekiston”, 1996.J. 1. – B.364.
9. KarimovI.A. BizdanozodvaobodVatanqolsin. –T.: “O’zbekiston”, 1996.
10. J. 2. –B.380.
11. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.: “O’zbekiston”, 1996. J. 3. –B.366.
12. KarimovI.A. Bunyodkorlikyo’lidan. – T.: “O’zbekiston”, 1996. J. 4. –B.176.
13. KarimovI.A. Yangichafikrlashvaishlash – davrtalabi. –T.: “O’zbekiston”, 1997. J. 5. –B.384.
14. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo’lida . – T.: “O’zbekiston”, 1998.J. 6. – B.429.
15. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. –T.: “O’zbekiston”, 1999. J. 7. –B.413.
16. KarimovI.A. OzodvaobodVatan, erkinvafarovonhayot – pirovardmaqsadimiz. – T.: “O’zbekiston”, 2000.J. 8. –B.525.
17. KarimovI.A. Vatanravnaqiuchunharbirimizmas’ulmiz.-T.: “O’zbekiston”, 2001.J. 9. –B.440.

- 18.** Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak.-T.: “O‘zbekiston”, 2002. J. 10. –B.432.
- 19.** Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li.-T.: “O‘zbekiston”, 2003. J. 11. –B.318.
- 20.** Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. – T.: “O‘zbekiston”, 2004. J. 12. – B.398.
- 21.** Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi.– T.: “O‘zbekiston”, 2005. J. 13. – B.445.
- 22.** Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat.-T.: “O‘zbekiston”, 2006. J. 14. – B.276.
- 23.** Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezon va maqsadidir.-T.: “O‘zbekiston”, 2007. J. 15. 2007. –B. 320.
- 24.** Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. – T.: “O‘zbekiston”, 2008. J. 16. – B.365.
- 25.** Karimov I. A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2009. J. 17. –B.277.
- 26.** Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko‘tarilish sari. – T.: “O‘zbekiston”, 2010. J. 18. – B.278.
- 27.** Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.– T.: “O‘zbekiston”, 2011. J. 19. – B.357.
- 28.** Karimov I.A. Bizning yo‘limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir. –T.: “O‘zbekiston”, 2012. J. 20. –B. 320.
- 29.** Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat’iyat bilan davom ettirish yo‘lida. –T.: “O‘zbekiston”, 2013. J. 21. –B.380.

30. Karimov I.A. O'zbekiston erishgan yutuq va marralar – biz tanlagan islohatlari yo'lining tasdig'idir. –T.: "O'zbekiston", 2014. J. 22. –B.367.
31. Karimov I.A. Erishgan marralar bilan chegaralanmasdan, boshlangan islohotlarimizni yangi bosqichga ko'tarish bugungi kundagi eng dolzarb vazifamizdir. –T.: "O'zbekiston", 2014. J. 23. –B. 404.
32. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk, kichik biznes va tadbirkorlikning ustuvorligini ta'minlashga keng yo'l ochib berish- vatanimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida hal qiluvchi omildir. –T.: "O'zbekiston", 2016. J. 24. –B. 376.
33. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008.

III. Asosiy Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Xazoyinul ma'noiy. G'aroyib us-sig'ar. Asarlar. 1-tom. –t.: "Fan", 1998. –B.489.
2. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Asarlar. 10-tom. "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1978. –B.306-307.
3. Alisher Navoiy. Nazmul Javohir. Asarlar 15-tom. –T.: "Fan", 1968. –B.19.
4. Alisher Navoiy. Arbain. Asarlar. 15-tom. –T.: "Fan", 1968. –B.60.
5. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Asarlar. 7-tom. –T.: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1978. –B. 40.
6. Alisher Navoiy. Nasoyimul-muhabbat. MAT. T. 17. –T.: "Fan", 2001. –B. 15.
7. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT. T. 14. –Toshkent: Fan, 1998. –B. 13.
8. Alisher Navoiy. Munshaot. MAT. T. 14. –Toshkent: Fan, 1998. –B. 156.
9. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. MAT. T. 12. –T.: Fan, 1996. –B. 199.
10. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. Nasriy bayon qiluvchi A. Hayitmetov. –T.:
11. "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1974. –B.97-98.

12. Alisher Navoiy Mahbubul qulub. –T.: “G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1966.-B.36-37.
13. Dushanbe shahrida Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy haykali ochildi. //Xalq so’zi, № 200, 2018 yil, 27 sentabr.
14. Eshboyev T. Alisher Navoiy jamg’armasi tuzildi. //Xalq so’zi, № 16 (7246), 2019 yil 24 yanvar.
15. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy tanqidiy qarashlari. -T.: “Fan”, 1959.-B.52.
16. Haqqul I. Navoiy izidan // O’zbek tili va adabiyoti. 2005, 1-son.
17. Ibrohim Haqqul. Alisher Navoiyning ijodiy merosi va uning jahonshumul ahamiyati. – T.:”Fan”, 2001. –B.28.
18. Mahmud Sa’diy, Ahmad Otaboy. Navoiyning hududsiz olami.//“O’zbekiston adabiyoti va san’ati”, 2010 yil 6-son.
19. Mallayev N. Genial shoir va mutafakkir. -T.:“Fan”, 1968. –B.11.
20. Mahmud As’ad Jo’shon. Tasavvuf va go’zallik. –T.: “Adolat”, 2004. – B.15.
21. Ochilov E. Alisher Navoiy. –T.: “O’zbekiston”, 2013.-B.169.
22. Shernazarov A. Gulistonda Alisher Navoiyning yangi haykali ochildi. //Xalq so’zi, № 219, 2018 yil, 23 oktabr.
23. Rosenthal E. Some aspects of islamic political thought // Islamic culture. - An English Quarterly, 1948, January. –P. 6.
24. Sultonmurod Olim. Naqshband va Navoiy. -T.: “Fan”, 1996.-B.94.
25. Xondamir. Makorim ul-axloq.-T.: “Fan”, 1967. –B.32.
26. Zaxoidov V. Alisher Navoiy ijodining g’oya va obrazlar olami. -T.: “Fan”, 1960.-B.7.
27. Zoxidov V. Ulug’ shoir ijodinig qalbi.-T.: “O’qituvchi”, 1970. –B.152.

IV. Internet ma’lumotlari

1. <http://manaviyat.uz/> Alisher Navoiy asarlari — ma’naviyat bulog’i
2. <http://manaviyat.uz/> Insoniyat barhayot ekan, bu ehtiyoj mavjuddir.


3. www.lex.uz/ O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
4. www.uza.uz/ Alisher Navoiy va XXI asr
5. www.ziyouz.com/ Alisher Navoiy.
6. <http://uza.uz/uz/> Navoiyda xalqaro konferensiya bo'lib o'tmoqda.
7. <http://uza.uz/uz/> Navoiy shahrida an'anaviy xalqaro ilmiy konferensiya bo'lib o'tmoqda.


ILOVALAR




NIZOMIDDIN MIR ALISHER

Ulug' o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri,
mutafakkiri va davlat arbobi







Binokorlik ishlari



bir necha madrasa



Xondamirning qayd qilishicha,
80-yillar davomida Alisher Navoiy
o'z mablag'lari hisobidan Hirot
va mamlakatning boshqa shaharlarida



9 hammom



40 ta rabot



17 ta masjid



10 xonaqoh



Buyuk o'zbek shoiri,
mutafakkir, davlat arbobi
1501-yil 3-yanvar kuni vafot etdi



*ORAZIN YOPQACH KO'ZUMDIN SOCHILUR HAR LAHZA YOSH,
O'YLAKIM PAYDO BO'LUR YULDUZ, NIHON BO'LG'ACH QUYOSH.*

*Orazin yopqach ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
O'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh.*

*Qut bir bodomu yerim go'shan mehrob edi,
Gorati din etti nogah bir baloliq ko'zu qosh.*



Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i hududida Adiblar xiyobonini barpo etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori¹

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i mustaqillik yillarida xalqimizning bunyodkorlik salohiyati bilan tobora chiroy ochib bormoqda. Qayd etish lozimki, 1991-yili Milliy bog' hududida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning muazzam haykali barpo etilib, o'tgan davr mobaynida ulug' ajdodimiz tarannum etgan yuksak gumanistik g'oyalarga hamohang ravishda, aniq me'moriy reja asosida keng ko'lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Ushbu hududda 2007-yili O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor, 2010-yili O'zbekiston xalq yozuvchisi Oybek, 2013-yili O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad va taniqli shoira Saida Zunnunova xotiralariga bag'ishlab yodgorlik majmualari o'rnatildi.

Milliy bog'ni xalqimiz, avvalambor, yoshlarimizning madaniy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirishga xizmat qiladigan, nafaqat yurtimiz, balki jahonning turli mamlakatlaridan mehmonlar va sayyohlar tashrif buyuradigan har tomonlama go'zal va betakror maskanga aylantirish, ma'naviy hayotimizda o'chmas iz qoldirgan atoqli so'z san'atkorlarining tarixiy xotirasini abadiylashtirish maqsadida:

1. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, "Nuroni" jamg'armasi, "Mahalla" xayriya jamoat fondi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, Toshkent shahar hokimligi va keng jamoatchilik vakillarining O'zbekiston Milliy bog'i hududida Adiblar xiyobonini barpo etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 18.04.2017 yildagi PQ-2894-son, Kuchga kirish sanasi 19.04.2017
Manba: "Xalq so'zi", 2017 y., 77 (6771)-son

2. O'zbekiston Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi Toshkent shahar hokimligi, Moliya vazirligi, Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda bir oy muddatda O'zbekiston Milliy bog'i hududida bog'ning umumiy ko'rinishi va Alisher Navoiy haykali bilan uyg'un ravishda Adiblar xiyobonining yaxlit me'moriy ansambl shaklidagi loyihasini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun kiritсин.

3. Adiblar xiyobonining me'moriy loyihasini ishlab chiqishda ushbu manzilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi uchun zamonaviy yangi bino qurish nazarda tutilsin.

4. Mazkur hududda joylashgan O'zbekiston madaniyati va san'ati ko'rgazmasi binosi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tasarrufiga o'tkazilsin va bu yerda doimiy ravishda kitoblar ko'rgazmalari va taqdimotlari, turli adabiy-ma'rifiy tadbirlar o'tkaziladigan adabiy markaz tashkil etilsin.

5. O'zbekiston Badiiy akademiyasi tegishli tashkilot va idoralar bilan birgalikda milliy adabiyotimizning ulkan namoyandalari: O'zbekiston Qahramoni, atoqli olim va jamoat arbobi Ozod Sharafiddinov; O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov; O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov; O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik majmualarini barpo etish bo'yicha bir oy muddatda ijodiy tanlov e'lon qilsin va uni belgilangan tartibda o'tkazsin.

6. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi: Toshkent shahar hokimligining poytaxtimizdagi Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan Hamid Olimjon haykalini; G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida o'rnatilgan O'zbekiston xalq shoiri G'afur G'ulom haykalini; O'zbekiston davlat san'at muzeyi yonidagi xiyobonda o'rnatilgan O'zbekiston xalq shoiri Zulfiya haykalini Adiblar xiyoboniga ko'chirish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

7. Toshkent shahar hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi Adiblar xiyobonining yaxlit me'moriy ansamblini barpo etish bo'yicha, O'zbekiston Badiiy akademiyasi mazkur qarorning 5-bandida

ko'rsatilgan adiblarning haykallarini yaratish bo'yicha buyurtmachi etib, shuningdek, "ToshkentboshplanLITI" DUK loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun bosh loyihachi etib belgilansin.

8. O'zbekiston Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi loyiha-smeta hujjatlarini belgilangan tartibda davlat ekspertizasidan o'tkazsin va bajarilayotgan qurilish-montaj ishlari yuzasidan davlat arxitektura-qurilish nazoratini amalga oshirsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda tasdiqlangan loyiha hamda ushbu qarorning 5-bandida ko'rsatilgan ijodiy tanlov natijalari asosida Adiblar xiyobonining yaxlit me'moriy ansamblini barpo etish bilan bog'liq tashkiliy masalalarni, shuningdek, moliyalashtirish manbalarini belgilagan holda qaror qabul qilsin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov zimmasiga yuklansin.

Respublikasi Prezidenti

O'zbekiston

Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri, 2017-yil 18-aprel

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB.ALISHER NAVOIYNING HAYOTI VA IJODI.....	8
1.1 Mustaqillik yillarida Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi.....	8
1.2 Alisher Navoiy ijodida barkamol avlodni tarbiyalash g'oyalari.....	17
II BOB. ALISHER NAVOIY ASARLARIDA INSON MASALASI.....	24
2.1. Alisher Navoiy insonparvarlik g'oyalarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni.....	24
2.2. Alisher Navoiy adabiy merosining yosh avlod tarbiyasiga tutgan o'rni.....	42
XULOSA.....	49
FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	52
ILOVALAR.....	58